



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – olyi burchimiz!

Postda На посту

2023-yil
24-avgust
payshanba

№ 34 (4624)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz



Юртдошларимизнинг юз-кўзларидағи хотиржамликини, уларнинг яратувчилик иштиёқи билан янгиликка, бунёдкорликка бел боғлаганини кўриб қувонасан киши. Айниқса, беғубор болажонларнинг ота-онаси ва яқинларининг меҳрли қучоғида яйраётгани, уларнинг қалбини чулғаб олган шодлик, хуррамликни таърифлаш мушкул. Буларнинг барчаси мамлакатимизда ҳукм суроётган тинчликосяйишталик шарофатидандир.

Самарқанд вилояти ИИБнинг соҳавий хизмат ходимлари ҳам шу азим макондаги осуда ҳаёт, ҳуқуқ-тартиботни таъминлашдек масъулиятли ва шарафли ишга муносиб ҳисса қўшишмоқда.

Уларнинг фаолияти ҳақидаги мақолаларни 8–9 саҳифаларда ўқиисиз.

▼ Ҳафта қаҳрамонлари

ХАЛОСКОРЛАР



Сирдарё вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони инспекторлари Абдулаҳад Патуллаев ва Фазлиддин Фозилов Гулистон шаҳар марказини кесиб ўтган «Дўстлик» каналида оқиб кетаётгандан фуқарони қутқариб қолишиди.



TAYINLANDI



**Polkovnik
Ravshan Sultanxodjayev
Xorazm viloyati Ichki ishlar
boshqarmasi boshlig'i
lavozimiga.**

✓ **Хафта қаҳрамонлари**

(Давоми. Бошланниши 1-бетда.)

Жорий йилнинг 17 август куни кечки соат бешларда вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ баталёни ходимлари йўриқномадан кейин одатдагидек тунги навбатчиликка йўл олиши. Батальоннинг 1-отряд ҳайдовчиси, сафдор Абдулаҳад Патуллаев ва 2-отряд сафдор ходими Фазлиддин Фозилов учун одатдаги тунги навбатчилик бошланди. Ҳар иккала осойишталик посбони хизмат вазифасини бажаришга киришиди.

Шом чўкиб, атрофга тун пардасини ёйганида, «Дўстлик» каналининг ўртасидан кимнингдир ёрдам сўраб, жон-жади билан қичиргани эштилди. Сафдорлар қирғоққа яқин келишиди. Абдулаҳад Патуллаев ҳеч иккilanмай кийимларини ечиб, ўзини сувга отди. Ҳар бир дақиқа фанимат эди. Кечаси сувда оқиб кетаётган шахсни илғаш осон бўлмади. Боиси у бир кўриниб, бир фойиб бўларди. Сузишга усталиги наф бериб, Абдулаҳад ниҳоят кўмакка муҳтоҳ кишини тутиб олди. Сафдор Фазлиддин Фозилов ҳамрасига кўмак бериб, чўкаётган одамни камарлардан улаб қилинган арқон ёрдамида қирғоққа чиқариб олишиди.

У деярли ҳушини йўқотаёзган эди. Осоишталик посбонлари тез тиббий ёрдам келишини кутиб ўтиришмай, унинг нафас ўйларидан сувни чиқаришга киришиди. Ўз вақтида кўрсатилган биринчи ёрдам натижасида фу-

каронинг нафас олиши тикланди. Бу орада «Тез ёрдам» машинасида шифокорлар етиб келди.

Сувда чўкиб кетишига бир баҳа қолган шахс Гулистон шаҳар «Богишамол» маҳалласида яшовчи 1971 йилда туғилган Михаил Степанович Прейда экани аниқланди.

У канал ёқасида сайр қилиб юрганида эҳтиётсизлиги туфайли сувга тушиб кетганди. Сузишни яхши билмагани учун сув уни каналнинг ўртасига қараб оқизиб кетган.

— Бугун менинг иккинчи туғилган куним, — дейди Михаил Прейда. — Мана бу мард йигитлар ҳаётимни сақлаб қолишиди. Бунинг учун улардан чексиз миннатдорман. Барака топишиш!

— Ёш ходимларимизнинг ушбу хайрли иши уларнинг ўз бурчи ва хизмат вазифасига садоқатини кўрсатди. Эътиборлиси, ҳар иккаласининг ички ишлар тизимидағи фаолиятига ҳали кўп бўлгани йўқ. Шунга қарамай, касбга бўлган меҳри, ўз вазифасини сидқидилдан адо этиши билан бошқаларга ўрнан бўлишга улгуришиди. Улар ўз ҳаётини хавф остига қўйиб бўлса-да, мардлик намунасини кўрсатишиди, — дейди вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони командирининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, капитан Аброр Бахмалов.

**Абдураҳмон МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.**

Сирдарё вилояти.

❖ **Ijtimoiy himoya**

HALOVAT QO'RG'ONI



**Umr – sinov. Uning
notekis ko'chalari odamni
goh farog'at bog'larining
nash'u namosiga to'ydiradi,
goh mashaqqat ko'chalarida
sarson-u sargardon qiladi.
Bu kechmishlar axiyri yaxshi
tuhfalarga, mukofotlarga
eltadi kishini.**

Surxondaryo viloyati IIB Harbiy safarbarlik bo'limi katta inspektori, mayor Bahriiddin Turdiyevning oilasi 18 yildan beri tumanma-tuman, ijarama-ijara yurib yashadi. Har yangi ijara uyga ko'chishganida turfa muammolarga duch kelishar, 5 nafar farzandi ham endigina o'rgangan maktabi-yu o'rtoqlarini tashlab, yangi joyga ko'chishdan bezillab qolishgandi. Axir, iloj qancha. Oilaboshining 2004-yil IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7534-sonli harbiy qismidan boshlangan xizmati Boysun, Sho'rchi tumanlarida IIB boshlig'ining ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinnbosari vazifalarida davom etdi. Shu bois Vatan xizmatiga shaylangan o'g'lonning oilasi ham, ko'ch-ko'roni doim o'zi bilan edi.

Nihoyat, Turdiyevlar oilasida quvonchli voqealr yuz berdi. B.Turdiyevning ko'p yillik xizmatlari inobatga olinib, davlatimiz rahbari hamda Ichki ishlar vazirligining g'amxo'rliji tufayli ular o'z uyiga ega bo'lishdi.

— Termiz shahridagi «Manguzar» mahallasi hududidagi ko'p qavatlari uylardan uch xonali xonadonga ega bo'ldik, — дейди mayor Bahriiddin Turdiyev. — Xonadonning dastlabki 25 foiz to'lovi vazirlilik tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan to'lab berilgani, ayniqsa, biz uchun katta imkoniyat bo'ldi. Bilasiz, uy olish oson emas. Yetarli mablag' doim ham to'planavermaydi. Shuning uchun moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashganidan juda minnatdorman.

Ayniqsa, xonadon bekasi Iroda opa uchun bu katta tuhfa bo'ldi. Chunki, boshqa ayollar kabi uning ham uyli bo'lish orzusi ushaldi.

— Ijara uyda yashagan vaqtlarimizda biz ham o'zimizning boshpanamizda qachon emin-erkin, yayrab yasharkanmiz, deya orzu qillardim. Bugun yangi, keng va yorug', shinam uyda farzandlarim bilan baxtiyor yashayotganimdan mamnunman.

Ha, inson uchun katta-kichik orzularga yetishish katta baxt. Mustaqillik esa ko'pchilik qatori, el osoyishtaligi uchun bel bog'lagan o'g'lonlarning hayotida o'zgarish qilish, orzularga erishib, saodatli umr kechirish imkonini bermoqda.

**Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.**

Surxondaryo viloyati.

❖ **E'tirof**

BALLI, G'OLIBLAR!

Joriy yilning 11–17-avgust kunlari Qirg'iziston Respublikasining Issiqko'l shahrida universal jang bo'yicha Osiyo championati bo'lib o'tdi. Qit'aning ko'plab davlatlari vakillari qatnashgan nufuzli musobaqada mammakatimiz sportchilari ham munosib ishtirot etib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egallahdi.

Ta'kidlash joizki, musobaqada tatamiga chiqqan yurtimiz termaga jamoasi tarkibida IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Metropoliten-da xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining bir guruh xodimlari ham faol qatnashib, sovrindorlar qatoridan joy olishdi. Xususan, 3-batalyon 3-otryad safdar xodimi, safdar Azizbek Begimov va ushbu batalyon 1-otryad safdar xodimi, safdar Behruzbek Norboyev o'z vazn toifalarida barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratdi. Boshqarmaning yana

bir xodimi – safdar Aziza Xontemirova ham o'zining nimaga qodir ekanini amalda ko'rsatib, ikkinchi o'ringa munosib ko'rildi. Shuningdek, 4-batalyon 2-otryad safdar xodimi, safdar Laziz Rabbonov hamda 2-batalyon 2-otryad safdar xodimi, safdar Shohjahon Abdualimov uchinchi o'rinni zabit etdi.

Kuni kecha g'olib sportchilarni taqdirlash marosimida yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'targan xodimlarga IIV rahbariyati nomidan diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

O'z muxbirimiz.



Фахрийлар сафда

ХАЛҚ ДАРДИ БИЛАН ЯШАШ КЕРАК

Лавҳамиз қаҳрамони Зулфия Абдукаримова йигирма етти йил ички ишлар органларида самарали хизмат қилди. Айни кунда эса у Урганч шаҳридаги «Олмабоғ» маҳалла фуқаролар йиғини раиси.

Бундан ўн йилларча муқаддам маҳаллада турли нотинчилклар пайдо бўлди. Қизларни эрта турмушга узатиш ҳолатлари, ёш оиласлар ажрими, хотин-қизлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар кўпайди. Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида шаҳар ҳокимлиги масъуллари ИИБ раҳбарияти билан маслаҳатлашиб, маҳалла фуқаролар йиғинининг диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчиси лавозимига истеъфодаги сержант Зулфия Абдукаримова номздонини тавсия қилди. Номздонинг таржима ҳоли ҳамда хизмат фаолияти билан яқиндан танишган маҳалла аҳли бир овоздан бу тақлифни маъкуллади.

Зулфия опа маслаҳатчи вазифасига тайинлангач, иш фаолиятини хотин-қизларнинг турмуш тарзини ўрганишдан бошлади. Оиласларда учраётган муаммоларни, маҳалла ахлининг таклиф ва истакларини ён дафтарига қайд қилиб, фаоллар би-

шу тариқа, у 8 йил маҳалла хотин-қизлари билан ишлади. Шундан сўнг аҳоли бу жонкуяр аёлни маҳалла фуқаролар йиғини раиси лавозимига сайлади. Мана, шунга ҳам бир ярим йилдан ошди. Ўтган қисқа давр ичидаги «Олмабоғ» маҳалласи тубдан ўзгарди. Жамоат тартибини сақлаш, тинчлик-осойиштадикни таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш мақсадида «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида кўплаб тадбирлар ўтказилди. Хусусан, маҳалла ҳудудидаги барча корхона ва ташкилотларга, савдо ва хизмат кўрсатиш шоҳобчаларига видеокузатув камералари ўрнатилди. Шунингдек, кўнгилли ёшлардан иборат тунги навбатчилик гурухлари фаолияти йўлга кўйилди. «Фуқаробай», «хонадонбай» ишлар тизимида аҳолининг мавжуд муаммолари ўрганилиб, уларни ижобий ҳал этиш чоралари кўрилди. Профилактика инспектори,

да ишлашнинг ҳам ўзига хос масъулияти, ташвиши борлигини сездим. Аммо халқ дарди билан яшаш, мушкулини осон қилиш, муаммоларига ечим топиш кишига фарҳ, ғайратшижоат бағишиларкан. Ўзингни руҳан тетик, баҳтиёр ҳис қиларкансан.

Лавҳамиз қаҳрамонининг ички ишлар органлари тизимида хизмат фаолияти ҳам кўпчиликка ибратли. У узоқ йиллар вилоят ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш бошқармаси молия-иқтисод бўлумида самарали хизмат қилди. Муррабийлик фаолияти давомида подполковник Марҳабо Раҳимова, майорлар Лилия Залилова, Отабек Отаев, сержантлар Ширин Ибрагимова, Замира Юсупова, Нигора Нурметова сингари кўплаб ёшларга устозлик қилди.

Она юрт, муқаддас заминимизнинг, янги Ўзбекистоннинг гуллаб-яшнаши, ривожланиши учун сидқидилдан меҳнат қилаётган истеъфодаги сержант Зулфия Абдукаримова



лан ҳамкорликда ечимларини топишга ҳаракат қилди. Айниқса, хотин-қизларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш, уларнинг бандлигини таъминлаш, тадбиркорликка жалб қилиш масалаларига алоҳида эътибор қаратди. Ҳар бир нохуш ҳолатни профилактика инспектори билан бамаслаҳат қонуний ҳал қилишга интилди.

лейтенант Отаназар Озодов билан ҳамкорликда амалга оширилган бу каби тадбирлар натижасида маҳалла жиноятдан ҳоли ҳудудга айлантирилди.

– Ҳар бир касбнинг ўзига яраша мاشаққати, қийинчилиги бор, – дейди Зулфия Абдукаримова. – Узоқ йиллар ички ишлар органларида хизмат қилган бўлсам-да, маҳалла-

сингари фидойи инсонлар билан ҳақли равища фахрлансак арзиди.

Худойберган ЖАББОРОВ, ўз мухбиришимиз.

Хоразм вилояти.

Суратда: маҳалла фуқаролар йиғини раиси Зулфия Абдукаримова ППХ батальони ходимлари билан сұхбатлашмоқда.

Саъдулла АБДУЛЛАЕВ
олган сурат.

Mustaqillik tengdoshlari

«SHARAFLI NOMNI OQLAYMAN!»



– Men baxtli insonman, chunki yurtimiz mustaqilligini qoʻlga kiritgan tarixiy sanada tug'ilganman. Toʼgʼrisi, mustaqillik tengdoshi degan sharafli nomni oqlash zimmamga katta masʼuliyat yuklaydi, – deydi Chust tumani IIB HPB voyaga yetmaganlar bilan ishlash guruhi inspektori, mayor Oʼgʼiloy Qoʼrchiyeva. – Tinchlik-osoyishtalikni saqlash ichki ishlar organlari xodimining birinchi galadagi vazifasi ekan, men bu masʼuliyatlari vazifani sidqidildan bajarishga doimo tayyorman.

Qahramonimiz oilada qatʼiyatliligi bilan ajralib turardi. Otasi Maʼrufali YoʼIdoshev oʼgʼil bolalardan qolishmaydigan abjir va epchil Oʼgʼiloyning kelajagini yorqinroq tasavvur qilardi. Shuning uchun boʼlsa kerak, u qizining ichki ishlar organi xodimi boʼlishiga toʼsqinlik qilmadi.

Oʼgʼiloy 2015-yilda IIV Akademiyasini tamomlab, Chust tumani IIB Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish boʼlimi tezkor vakili lavozimida xizmat qildi, koʼpchilikka ibrat boʼldi. Berilgan topshiriqlarni oʼz vaqtida bajarishga intildi. 2022-yilda tuman IIB HPB voyaga yetmaganlar bilan ishlash guruhi lavozimiga ishga oʼtdi.

Oʼgʼiloyning turmush oʼrtogʼi, katta leytenant Sirojiddin Ermatov IIV huzuridagi JIED ikkinchi mintaqaviy hududi muvofiqlashtirish markazi psixologik taʼmlash guruhi katta psixologi boʼlib xizmat qiladi. Ular Malika va Muhammadziyoni tarbiyalab, kamolga yetkazishmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
оʼз muxbirimiz.
Namangan viloyati.

■ Сурхандарьинская область

НА КОНЕ ЗА МЕЧТОЙ

Спорт закаляет не только тело, но и дух. Он учит быть дисциплинированным, ставить цели и добиваться их. Внимание, уделяемое в стране развитию спорта, способствует формированию всесторонне развитого молодого поколения.



Сурхандарья издавна славится джигитами-наездниками. Большой популярностью среди жителей пользуется улак-купкари – старинная конная игра народов Центральной Азии. Это захватывающее зрелище можно сравнить разве что с испанской корридой.

В основанной в 2021 году в Термезском районе «Школе наездников» занимаются мальчишки и девчонки, юноши и девушки. Отрадно, что среди них немало детей сотрудников органов правоохраны. Недавно по инициативе УВД города Термеза и членов Совета ветеранов для

детей сотрудников здесь была организована экскурсия. Юные гости узнали, как «обувают» коней подковой, снаряжают сбруей и уздечкой, получили полезную информацию об уходе за животными.

– В школе имеются 16 коней, функционируют шесть кружков, – говорит заместитель директора «Школы наездников» при Управлении Национальной гвардии по Сурхандарьинской области, член Совета ветеранов УВД города Термеза подполковник в отставке Зокир Худоймуродов.

– В настоящее время занятия, которые проводятся в трех возрастных группах, посещают около тридцати любителей конного спорта.

– Занимаюсь несколько месяцев, но уже «заболел» этим видом спорта, – говорит Асадбек Мустарамов. – Летние каникулы провел, постигая секреты конной езды. В будущем хочу пойти по стопам отца – сотрудника органов внутренних дел.

– Управление внутренних дел города Термеза наладило тесное сотрудничество со «Школой наездников», – говорит председатель ветеранской организации УВД города Термеза майор в отставке Абдухалим Абдухалилов.

– Также успешно работаем с организацией содействия обороне «Ватанпарвар», на базе которой открыты кружки по стрельбе из пневматического оружия, из лука, плаванию, езде на багги, мотокроссу. Дети стражей-правопорядка могут посещать их бесплатно. Цель – воспитывать подрастающее поколение решительными, отважными и смелыми.

**Феруза РАХМОНКУЛОВА,
соб. корр.**





Қонунчилікдеги янгиликтер

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИГА ҚҰШИМЧА ВАКОЛАТЛАР

Жорий йилнинг 11 июлида Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан «Экология ва жамоат тартибини сақлаша соҳаларидағи қонунчилік такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатла-рига ўзгартыш ва құшимчалар киритиш түғрисида»ғи қонун имзоланды.

Мазкур қонун билан Миллий гвардия ҳамда ички ишлар органлари экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш соҳадаги ҳуқуқбузарлайларга қарши курашиш бүйича чоралар кўриши белгиланди. Шунингдек, қонун билан Маъмурый жавобгарлик түғрисидаги кодексга экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш соҳасида ҳуқуқбузарлайлар содир этган айборд шахсларни маъмурый жавобгарликка тортиш бүйича мазкур тузилмаларга ваколатлар беришини назарда тутувчи ўзгартышлар киритилди.

Ҳужжатга кўра, Экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш соҳасида Маъмурый жавобгарлик түғрисидаги кодекснинг қўйидағи моддаларида назарда тутилган маъмурый ҳуқуқбузарлайлар түғрисидаги ишлар ички ишлар органлари ва Миллий гвардиянинг юрисдикциясига ўтказилади:

– 63-модда (Файриқонуний ов, балиқ овлаш маҳсулотини, ёввойи ҳолда ўсуви ўсимликларни ийғиш ва тайёрлаш маҳсулотини қабул қилиб олиш);

– 72-модданинг 1 ва 4-қисмлари (Сувларни ифлослантириш ёки булғатиш, сувтўплагич иншотларда сувни муҳофаза қилиш режимини бузиш, сув объектларига оқова сувларни оқизишига йўл қўйиш шартлари түғрисидаги талабларни бузишга оид қисмида, бундан ер ости сувларига доир ҳуқуқбузарлайлар мустасно);

– 79-модданинг 1 ва 3-қисмлари (Дараҳтларни, буталарни, бошқа ўсимликларни ва ниҳолларни қонунга хилоф равишда кесиш, кундаков қилиш, шикастлантириш, йўқ қилиш ёки бошқа жойга кўчириб ўтказиш);

– 88-модда (Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш талабларига риоя қилмаслик, бундан битум эритиш чоғида атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш талабларига риоя этмаслик мустасно);

– 90-модданинг 1-қисми (Ов қилиш ва балиқ овлаш қоидаларни, шунингдек ҳайвонот дунёсидан фойдаланишнинг бошқа турларини амалга ошириш қоидарини бузиш);

– 91-модда (Саноат чиқинди-ларини, маший чиқиндиарни ва бошқа чиқиндиарни тўплаш, ташиш чоғида табиатни муҳофаза қилиш талабларини бузишга оид қисмида);

– 91¹-модданинг 1, 2 ва 3-қисмлари (Белгиланмаган жойларга қаттиқ маший чиқиндиарни ва қурилиш чиқиндиарини ташлаш, шунингдек суюқ маший чиқиндиарни тўкиш);

– 91²-модда (Санитар тозалаш инфратузилмаси объектларини жойлаштириш ва улардан фойдаланиш бўйича талабларни бузиш).

Бундан ташқари, Миллий гвардия ходимлари 161-модда (Шаҳарларни ва бошқа аҳоли пунктларини ободонлаштириш қоидарини бузиш) бўйича ишларни ҳам кўриб чиқади.

Мазкур қонун билан бу ишларни кўриб чиқиш ва жарима тарикасидаги маъмурый жазо қўллаш ҳуқуқига эга бўлган мансабдор шахслар, шунингдек, уларнинг номидан маъмурый ҳуқуқбузарлик түғрисидаги баённома тузиш ваколатига эга бўлган ички ишлар органлари ва Миллий гвардия тузилмаларининг мансабдор шахслари белгиланди.

Янги қонун билан киритилган ўзгартыш ва құшимчалар би-

ринчи навбатда Ўзбекистоннинг баркарор тараққиётини таъминлаш, атроф-мухитни муҳофаза қилиш, табиий, шу жумладан биологик ресурслардан оқилона фойдаланишга қаратилган иқтисодий ва экологик сиёсатни рўёбга чиқариш учун құшимча ҳуқуқий асослар яратади. Шунингдек, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ҳамда ундан фойдаланиш масалаларини қонунчилик жиҳатидан самарали тартибга солишга, ҳуқуқни қўллаш амалиётининг самародорлигини оширишга ҳизмат қилиши муқаррар.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, «Биз, ҳеч шубҳасиз, экологик мувозанат, мусаффо ҳаво, тоза сув, безавол табиат тарафдоримиз. Бу масала биз учун бошқаларга қараганда ниҳоятда долзарб ва муҳимдир. Нега деганда, биз дунёдаги энг катта экологик оғат – Орол фожиасини бевосита ўз бошидан кечираётган халқмиз».

**Рустам НЕКОВ,
Бухоро вилояти ИИБ Ташкилий
бошқармаси Юридик таъминлаш
гурухи етакчи юрисконсультъи,
подполковник.**



■ Республика Каракалпакстан

КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ – ОСНОВА ПРОГРЕССА

В последние годы по инициативе Президента страны в структуре министерств обороны, внутренних дел, по чрезвычайным ситуациям, Службы государственной безопасности и Национальной гвардии для подготовки кадрового резерва начали функционировать принципиально новые образовательные учреждения – военно-академические лицеи «Темурбеклар мактаби».



В их числе действующий в городе Нукусе военно-академический лицей «Темурбеклар мактаби» Министерства внутренних дел. Здесь готовят будущие кадры для органов внутренних дел. Процесс обучения направлен на воспитание у лицейцев чувства гордости за наших великих предков, глубокого уважения к духовным ценностям и традициям народа, раскрытие их интеллектуального потенциала, выработку творческого и аналитического мышления, храбрости и физической выносливости, умения постоять за Родину.

Деятельность лицеев «Темурбеклар мактаби» направлена на то, чтобы каждый воспитанник стал патриотом своей страны, всегда руководствовался девизом из «Уложения» великого

полководца и государственного деятеля Амира Темура «Сила – в справедливости». Высокие качества Амира Темура, такие как мужество и самоотверженность, преданность Родине, забота о



народе, являются примером для будущих защитников правопорядка.

В образовательном учреждении функционируют более 20 кружков. Углубленно изучаются математика, физика, история, английский язык, родной язык и литература. Организованы факультативные занятия с учетом интересов учащихся.

Учебное заведение оборудовано компьютерами, в классах установлены интерактивные доски, имеются лаборатории химии и физики, созданы кабинеты Амира Темура и Джалолиддина Мангуберди. Информационно-ресурсный центр постоянно пополняется и уже насчитывает свыше

семи тысяч книг, в том числе электронных изданий. У учащихся есть возможность заниматься спортом, обучаться вождению автотранспортных средств. Ребята участвуют в различных конкурсах и соревнованиях, занимают призовые места.

Практически считанные дни остаются до начала нового учебного года. К занятиям с лицейцами здесь заблаговременно подготовились. Будущих стражей правопорядка ждут просторные классы и педагоги-наставники, за плечами которых огромный многолетний опыт.

**Сирожиддин ДЖУРАБАЕВ,
соб. корр.**



Микробиологическая порча продуктов занимает первое место среди причин всех пищевых отравлений, как по частоте, так и по тяжести. Практически любой продукт (за исключением сахара, соли и масла) подвержен микробиологической порче. Несоблюдение требуемых условий производства, хранения, антисанитария приводит к микробиологической порче. Отравление, вызванное в результате употребления некачественных продуктов, может окончиться трагически. Особенно это актуально в летний период.

ДЕЙСТВОВАТЬ НА УПРЕЖДЕНИЕ



Сотрудники группы обеспечения карантинных мероприятий УООП СОБ МВД Республики Каракалпакстан во взаимодействии со специалистами других ответственных органов проверяют условия хранения пищевых продуктов в торговой сети, соблюдение санитарных норм, кондиционность реализуемых потребительских товаров.

– За семь месяцев нынешнего года проведено более 450 профилактических мероприятий на территории дехканских рынков, в торговых объектах, – говорит командир группы лейтенант Даuletayr Аметов. – Выявлено и изъято 576 кг продовольственных товаров, 811 кг молочной продукции, изготовленных с нарушениями технологии. По каждому факту приняты соответствующие меры.

Наряду с этим усиlena разъяснительная работа. Производителям, работникам торговой сети указывается на необходимость первостепенного обращения внимания на качество продукции, недопустимость хранения, перевозки, реализации товаров повседневного спроса в нарушение установленных правил.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdaуз



www.instagram.com/postda_uz

ЖИНОЯТЧИЛИКНИ ЖИЛОВЛАШ – ИСЛОҲОТЛАРНИНГ БОШ МАҚСАДИ

Бухоро вилояти ИИБда Ички ишлар вазири ўринбосари – Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш департаменти бошлиғи, генерал-майор Даврон Назармуҳамедов хузурида вилоятда содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш борасида амалиётга татбиқ этилаётган «Бухоро тажрибаси»нинг тақдимоти бўлиб ўтди.

Унда «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамоили асосида ҳуқуқбузарлик ва жиноятларни барвақт олдини олиш, бу борада келгусида амалга ошириладиган вазифалар юзасидан татбиқ этилаётган самарали лойиҳалар тўғрисида маълумот берилди. Шундан сўнг тизимда коррупциянинг олдини олишга қаратилган янги лойиҳа тақдимоти ҳам ўтказилди. Унга кўра шахсий таркиб ўртасида хизмат интизоми ва қонунийликка риоя этилиши,

ходимларнинг коррупцион ҳолатларга йўл қўймаслиги, ваколатидан четга чиқмаслик, фуқаролар билан хушмуомала бўлишлари юзасидан олиб борилаётган манзилли тадбирлар батафсил тушунирилди.

Вилоятнинг барча шаҳар ва туманларида «Мобил тарғибот гурӯҳлари» фаолияти йўлга қўйилган. Тақдимот жараёнида тарғибот гурӯҳлари маҳаллаларга бевосита ташриф буюриб, одамлар гавжум бўладиган жойларда вилоят ИИБ Ахборот хизмати томонидан тайёрланган тарғибот видеороликларини намойиш қилаётгани, турли жиноятлар тўғрисида аниқ мисоллар орқали тушуниришлар берилиб, шу орқали аҳолининг ҳуқуқий маданиятини ошириш мумкинлиги тўғрисида ҳам маълумотлар тақдим этилди.

Генерал-майор Даврон Назармуҳамедов лойиҳалар юзасидан ўз фикрини билдириб, ушбу лойиҳаларни республиканинг бошқа ҳудудлари жорий этиш кераклиги тўғрисида кўрсатмалар берди.

**Ф. УСМОНОВ,
капитан.**

Бухоро вилояти.



Ички ишлар вазири ўринбосари, генерал-майор Даврон Назармуҳамедов бошлигидаги ишли гурӯҳининг навбатдаги манзили Жиззах вилояти бўлди. Унда жиноятчиликни



жиловлаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш борасида ички ишлар органлари ходимлари томонидан амалга оширилаётган ишлар самарадорлиги ўрганилди.

Мазкур жараёнда «қизил» тоифадаги маҳаллалар, вояга етмаганлар, ёшлар, аёллар, судларда низолашаётган шахсларнинг муаммоларини аниқлаш ва ҳал қилиш, кибержиноятларнинг олдини олиш ва бу турдаги қонунбузарликларни «иссиқ изида» фош этиш, «фуқаробай» ишлаш, шахсий таркибда хизмат ва ижро интизомини мустаҳкамлаш каби бир қатор масалаларга эътибор қаратилди. Шунингдек, қонунбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликни жиловлаш борасида Бухоро тажрибасини вилоятда қўллаш чоралари белгиланди.

Вилоят ИИБда соҳавий хизматлар, ҳудудий ички ишлар органлари масъуллари иштирокида йиғилиш ўтказилди. Тадбирда соҳа вакилларининг жорий йилнинг ўтган даврида қонунбузарликларнинг барвақт олдини олиш, жиноятларни фош этиш, қидирудагиларни ушлашга оид фаолияти таҳлил этилди. Шундан сўнг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси йўналишида аниқланган камчиликлар кўриб чиқилди.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.**

Жиззах вилояти.

КЕСНА VA BUGUN



ҚҮШСАХИФАДА:

МАҲАЛЛА ТИНЧ БЎЛСА, одамларнинг чехрасида мамнунлик балқииди

Қўшработ тумани Самарқанд вилоятининг энг чекка ҳудудларидан бири ҳисобланади. Тумандаги мавжуд 45 та маҳаллада 131,2 минг нафар аҳоли истиқомат қилади. Ҳудуддаги тинчлик-осойишталикни таъминлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликнинг олдини олишдек масъулиятли вазифа туман ИИБнинг турли соҳавий хизматларида фаолият юритаётган ходимлар зиммасида.



Ўтган йили касб байрами арафасида топширилган замонавий қулайликларга эга туман ИИБнинг янги биносида хизмат қилиш осойишталик посбонларининг хизмат самарадорлигини оширишда айни муддао бўлди. Қолаверса, яратилган шарт-шароитлардан мурожаат билан келган фуқаролар ҳам мамнун.

Шу ўринда маҳаллаларнинг аксари туман марказидан анча узоқда, далаю дашт кўйнида, тоғ этакларида жойлашганлигини таъкидлаш жоиз. Хусусан, «Жонбулоқ» ва «Оқчобсой» маҳалла фуқаролар йиғинлари масофа жиҳатдан энг узоқ – 50 км олисда жойлашган. Мазкур маҳаллалардаги бешликнинг ҳамжиҳатликдаги фаолияти туфайли, ушбу ҳудудлар

«яшил» тоифага киритилган.

– Халқимизда «Бир болага етти қўшни ота-она», деган мақол бежиз яралмаган, – дейди «Оқчобсой» маҳалла фуқаролар йиғини раиси Бекбўта Шайқулов



– Бу мақол фақат фарзанд тарбиясига қуни-қўшнининг ҳиссаси борлигини англатибгина қолмай, балки одамлар ўртасидаги меҳр-оқибатга ишорадир. Чунки инсонлар бир-бирига эътиборли бўлса, ҳаммаси рисоладагидек бўлади. Қўлидан иш келиб қолган бола ўз имкониятига яраша фойдали меҳнат билан банд бўлса, ножўя йўлларга юр-

майди. Маҳалламида етти ёшдан етмиш ўшгача чорвачилик, дехқончилик билан банд. Бекорчи одамнинг ўзи йўқ. Буни яхши англаган профилактика инспекторимиз, катта лейтенант Голибжон Норов бирор муаммо юзага келса, кўпчилик билан кенгашиб, ҳал қиласи.

Кўшработ тумани ИИБ бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйида ўринбосари, майор Дилбек Носиров ички ишлар органларида ўтказилаётган «Энг яхши маънавий-маърифий ишлар тарғиботчиси» танловининг вилоят босқичида фахрли биринчи ўринни эгаллаб, танловнинг республика босқичида Самарқанд вилояти шаънини ҳимоя қилиши ҳам туманда ишларнинг яхши йўлга кўйилганидан дарак беради.

Туман аҳолиси билан ўзаро сұхбат ҷоғида, ҳудуддаги ички ишлар органлари ходимлари ҳақида илиқ фикрлар эшитдик. Ана шу сўзларнинг ичидаги энг ёқимлиси «Уларнинг орасида бегонаси йўқ, кези келганда, ходимлар энг яхши маслаҳатчимиз», дейишгани бўлди. Демак, ходимлар ҳалқ ичидаги, аҳоли билан ёнмаён. Бу ҳудуднинг ободлиги, маҳаллаларнинг тинч, осойишталиги, одамлар ҳаётининг фаровонлиги, чехрасида балқиган мамнунликда ҳам яққол намоён бўлмоқда.



 Миннаторлик



«ЎЗ ИШИНИНГ УСТАСИ ЭКАН»

– Тарихий обидаларга бой Самарқанд ҳақида кўп бора эшитган эдим, – дейди Россия Федерацияси фуқароси Юлия Луняшина. – Шу боис Ўзбекистонга келдим. Тарихий обидаларни ўз кўзим билан кўриб, ҳақиқатан ҳам Самарқанд эртакнамо шаҳар эканлигига амин бўлдим. Бироқ эҳтиётсизлигим оқибатида Регистон майдонида «Iphone 14 Pro Max» русумли уяли телефонимни йўқотиб кўйдим. Дарҳол шу ҳудудда хизмат олиб бораётган ички ишлар органи ходимларига мурожаат қилдим. Улар ўз ишининг устаси экан. Зудлик билан керакли чораларни кўришгани боис, қисқа муддатда уяли алоқа воситаси топилди. Ходимларнинг фидойилиги, жонкуярлиги таҳсинга сазовор, улардан миннатдорман.

Суратда: вилоят ИИБ Ҳавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси ЖТСГ инспектори, лейтенант Азизжон Эргашев Юлия Луняшина билан.

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ

ЭЗГУЛИКНИНГ ЙЎЛИ ЁРУФ

Вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмасининг ходимлари жорий йилнинг етти ойи мобайнида хизмат итлари ёрдамида 90 дан ортиқ жиноятни фош этишга эришдилар. Хусусан, ветеринария гуруҳи ветеринар фельдшери, кичик сержант Жаҳонгир Шакиров ана шундай ходимлардан биридир.

– Болалигимдан жониворларни яхши кўришим шу касбни танлашимга туртки бўлди, – дейди қаҳрамонимиз. – Айниқса, итларга меҳрим бўлакча. Агар улар билан тиллаша олсангиз, энг яқин ва садоқатли дўстга айланади. Менинг «Бинго» лақабли хизмат итим жуда ҳам ақлли. У антитеррор йўналишида тайёрланган. Шунингдек, унга яна уч ойлик терапия дарслари ўтилиши ақлли жониворнинг яна бир қиррасини очилишига сабаб бўлди.

Ҳозирда қаҳрамонимиз «Бинго» ёрдамида даун синдроми билан туғилган болаларга «Иймон» ННТда канистеропия машғулотларини олиб бормоқда. Бу амалиёт жаҳон тажрибасида мавжуд. Аммо Ўзбекистонда самарқандлик кинологлар томонидан илк бора ўтказилмоқда. Қуонарлиси, ушбу машғулотлар хасталикка чалинган болажонларни ҳаётга қарашларни шакллантириш, кундалик турмушда ўз ўрнини топиш борасида қобилиятини ошириш, одамлар билан мулоқотга киришишида ижобий самара бермоқда.

– Ушбу лойиҳани уч йил давомида режалаштириб, раҳбариятга



тақдим қилдик, – дейди кичик сержант Жаҳонгир Шакиров. – Дарсларимиз шу йилнинг март ойидан буён мунтазам ўтказилмоқда. «Бинго» ҳам болажонларни жуда яхши кўради. Уларнинг эркаликлари ўти шўхликларини ўта мулойимлик билан қабул қиласди.

– Биз дарсларга мунтазам

катнайпмиз, – дейди Марям Холмуротова. – Ўғлим Беҳруз «Бинго» билан тезда дўстлашди. Аслида у учун дўстлашиб осонмас. Тўғрироғи, камдан-кам одам болаларимиз билан дўстлашиби хоҳлади. Аммо Беҳруз «Бинго» билан жуда эркин ва осон чиқишиди. Чунки бу дўстлик ҳақиқий. Мавриди келга-

нидан фойдаланиб, ғамхўр кинологларимизга чин дилдан миннатдорлик билдираман.

Ҳаёт инсонларнинг бир-бирига илинган яхшиликлари, эзгуликлари билан чароғондир.

Ўз касбини севиб, ардоқлаётган қаҳрамонимиз ҳам бугун ўз хизмат вазифаси билан бир қаторда мурғак болажонларнинг ҳаётга бўлган қарашларини янада ёрқинлаширишдек эзгу амалга бош қўшмоқда.

– Устозим Рафаэль Гайсин «Итлар ёрдамида хизмат сифатини таъминлаш биринчи навбатда кинологнинг малакасига боғлик, шу боис ички хотиржамлиқда дикқатни бир ерга жамлаб ишлаш керак», деба ўргатган, – дейди кичик сержант Жаҳонгир Шакиров.

– Уларнинг бу маслаҳатларига ҳалигача амал қилиб келаман. Бугун ўзим фаолият олиб бораётган бўлинмада, Божхона хизматида, Чегара қўшинларида ҳам хизмат қилаётган шогирдларим бор. Уларга устозимдан ўрганганларимни ортирган тажрибам билан бойитиб ўргатишга ҳаракат қиламан. Токи, ёшлар соҳанинг биздан-да етук мутахассиси бўлсин. Энг катта орзуим – Ўзбекистон кинологларини жаҳон чемпионатида ғолиблар қаторида кўришдир.

ҲАМЖИҲАТЛИКДА ҲИҚМАТ КЎП

Алишер Навоий номидаги маҳалла Самарқанд шаҳри марказида жойлашган, аҳоли гавжум ҳудудлардан бири ҳисобланади. Маҳаллада 1973 нафар аҳоли истиқомат қиласди. Бугунги кунда мазкур ҳудуд «қизил» тоифага киритилган. Хўш, бунинг сабаблари нимада? Маҳалла бешлиги билан мулоқотимиз шу хусусида кечди.

– Хизмат ҳудудимда маҳаллий фуқаролар билан боғлиқ муаммолар деярли кузатилмайди, – дейди профилактика инспектори, майор Шуҳрат Мингбоев. – Бироқ маҳалла шаҳар марказида эканлиги боис келиб-кетувчilar кўп. Хусусан, истироҳат боғи, шаҳар ҳокимиёти, олий таълим даргоҳлари, академик лицеи, мактаб, боғча ва бошқа давлат ташкилот ва идоралари шу ҳудудда жойлаш-

ган. Маҳалланинг «қизил» тоифага киритилиши ҳам айнан шу билан боғлиқ. Айни пайтда криминоген вазиятни барқарорлаштириш, аҳоли осоишиштаги таъминлаш, жиноят ва хуқубузарликларнинг олдини олиш борасида маҳалла бешлиги ва бошқа соҳавий хизматлар ходимлари билан ҳамкорликда қатор профилактик тадбирлар олиб бормоқдамиз.

– Аёллар ҳаётида уч-

райдиган муаммоларга ўз вақтида ечим топишга ҳам алоҳида аҳамият қаратамиз, – деба сухбатимизга кўшилди маҳалланинг хотин-қизлар фаоли Лола Ибрагимова. – Ижтимоий химояга муҳтоҷ аёлларга асбоб-ускуналар, соғлигини тиклаш учун дори-дармонлар берилмоқда. Хусусан, II гурӯҳ ногирони Нигора Абдуллаеванинг махсус қулоқ аппарати зарурлиги ҳақидаги муружаатига жавобан унга яқинда ушбу қурилма олиб берилди. Шунингдек, хотин-қизларнинг бандлигини

таъминлаш, жамиятимиз ҳаётидаги ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, турли соҳаларда ўз қобилият



лича ўрганяпмиз. Мавжуд муаммолар кўпинча жойида ҳал этилмоқда.

Ҳар қандай иш аниқ максад, астойдил ҳаракат билан бошланса, албатта якуний натижадан кўнгил хотиржам бўлади. Алишер Навоий номидаги маҳалла аҳли ҳам ҳамжиҳатликда ҳикмат кўп, дея ҳудуддаги вазиятни яхшилаш пайида бир ёқадан бош чиқаришган. Мустасаддилар билан ўзаро мулоқот жараёнида, улар кўзлаган ишларининг уддасидан чиқишига ишончимиз комил бўлди.

ва имкониятларини рўёбга чиқаришлари учун маҳалла бешлиги масъуллари биргалиқда ҳар бир оиласининг ичиға кириб, вазиятни атроф-

Кўшсаҳифа материалларини ўз мухбиришимиз Гулноза ТУРҒУНБОЕВА тайёрлади.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

MUSTAQILLIK – BUYUK VA BEVAHO BOYLIK

Yaxshi bilamizki, uzoq safarlarga yoki jang-u jadallarga ketayotgan ajodolarimiz bir siqim Vatan tuproq'ini o'zlar bilan olib yurganlar. Bu hodisa bugungi kunimizga ham begona emas. Xorijdagi ko'plab vatandoshlarimizning so'nggi damlarida yurt tuproq'ini ko'zlariga to'tiyo qilganlarini eshitib, qalbimizda ozod va obod O'zbekistonimizga nisbatan muhabbat tuyg'usi yanada jo'sh uradi...

Xalqimiz asriy orzusi ushalgan Mustaqillik sanasi eng ulug', eng aziz bayram sifatida keng nishonlanishi bejiz emas. Darhaqiqat, tarixan qisqa davr ichida O'zbekiston iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanib, kuch-qudrati va salohiyati har tomonlama yuksalib borayotir. Bu avvalo, yurtimizda amalga oshirilayotgan oqilona islohotlar natijasidir.

Yurt ravnaqi, hududlarni rivojlantrish, sohalar taraqqiyotiga qaratilgan dastur va rejalar inson baxt-u saodatiga, farovonlikka, bugunimiz va ertangi kunga xizmat qilishini har bir yurdoshimiz chuqur his qilmoqda, bunga bevosita o'zi guvoh bo'limoqda. Tinch-osoyishta yurtimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, yangilanishlar, buniyodkorlik ishlari tufayli shahar-u qishloqlarimiz tobora chiroy oshib, dunyo bo'ylab mamlakatimizning nufuzi oshib borayotgani har birimizga g'urur bag'ishlab, ertangi kunga ishonchimizni oshiradi.

Ayniqsa, so'nggi 5-6 yilda amalga oshirilgan islohotlarga teran nazar tashlasak, qalbimiz ravshanlashadi. O'zbekiston dunyoga ochildi. Ma'lumki, mamlakatimiz tashqi siyosatida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhim o'rinn tutadi.

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan, xalq farovonligiga, ikkinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sherik davlatlar va investorlar bilan hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. O'zbekiston va mintaqadavlatlari o'rtaida shakllangan va

yanada mustahkamlanib borayotgan yangi muhit mazkur maqsadlarga erishishga hamda o'zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Yaqin qo'shnilarimiz, ildizi tomirlarimizga asrlar mobaynida tutashib ketgan qardoshlarimiz bilan yaqin qo'shnichilik aloqalarining mustahkamlangani xalqlar o'rtaida do'stona muhitni yanada mustahkam-ladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan turizm sohasini rivojlantrishga alohida

erishish maqsadida o'tkazilayotgan sayyor qabullardan mammun bo'layotganini barchamiz ko'rib, his etib turibmiz.

Tabiiyki, amalga oshirilayotgan islohotlar boshqa sohalar qatori, ichki ishlar organlarini ham chetlab o'tgani yo'q. Yangi ruh va shijoat bilan ish boshlagan osoyishtaligimizning munosib posbonlari Vatanimiz tinchligi yo'lida o'zlarining bor kuch va g'ayratlarini ayamasdan xizmat qilib kelmoqda. Ularning sa'y-harakatlari tufayli, jinoyat va huquqbazarliklar soni yildan-yilga kamayib, sodir etilishi mumkin bo'lganlarining esa barvaqt oldi olinmoqda. Soha xodimlarining xizmatini yanada takomillashtirish maqsadida ular qu-



yo'Iga qo'yilganini bu yo'ldagi xayrli va ezgu amallarning mantiqiy davomi deyish mumkin. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish maqsadida ko'plab nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik hamda adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi. Mamlakatda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati tamoyili barcha harakatlarining negiziga qo'yildi.

Muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan oldin jamoatchilik muhokamalarining tashkil etilishi ham islohotlar samarasi sanaladi. Bu, jamoatchilik nazorati huquqidan foydalanish imkoniyatining ta'minlanayotganiga yaqqol dalildir. Shu bilan birgalikda, siyosiy huquqlarning ta'minlanishini saylovlarda nafaqat mamlakatimizda istiqomat qilayotgan aholi, balki xorijdagi fuqarolarimiz, jazoni ijro etish muassasalaridagi ayrim toifadagi mahkumlarning ham ishtirot etayotganida ko'rish mumkin.

Uzoq yillar davomida xalqimiz orasida istiqomat qilib, el-yurt ravnaqiga hissa qo'shib kelgan shaxslarning siyosiy huquqlarini ta'minlash maqsadida ularga fuqarolik berish tartibi soddallashtirildi. Buning natijasida 2018–2021-yillarda 70 mingdan ortiq shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

Albatta, mo'jaz maqolada istiqlol yillarida jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilgan ulkan ishlar, bu borada kelgisidagi rejalar xususida batafsil to'xtalishning iloji yo'q. Biz mustaqillik bergan imkoniyatlarning ayrimlarigagina qisqacha to'xtalib o'tishga harakat qildik, xolos. Toki yer yuzida hayot davom etar ekan, ona Vatanimiz yanada taraqqiy etib, xalqimizning turmushi farovonlashib boraveradi. Zero, mustaqillik bu huquq demakdir, O'zbekiston esa ulkan imkoniyatlar mamlakatidir.

**Sherzod ABDUSAMADOV,
o'z muxbirimiz.**



e'tibor qaratilayotgani mamlakatimiz obro'sini, nufuzini dunyo miyosida yanadi oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan 2022-yilda 5,2 mln nafar chet el fuqarolari turist sifatida O'zbekiston ga tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2021-yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,4 mln nafarga yoki 2,8 baravarga oshgan. Joriy yilning o'tgan 6 oyida esa, O'zbekistonga 3,1 mln nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan.

Yana bir alohida to'xtaladigan jihat – odamlarning mustaqillikni tom ma'noda his etishlari uchun bugunidan rozi bo'lib, ertangi kunga umid bilan qarashiga

lay shart-sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy bino va texnikalar bilan ta'minlanyapti.

Sohani aholiga xizmat qiluvchi xalqchil tuzilmaga aylantirish, xalqqa yaqinlashtirish maqsadida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar samarasi o'laroq, aholining ichki ishlari organlariga ishonchi ortyapti. Shu boisdan fuqarolar nafaqat jinoyat va huquqbazarliklarning oldini olish, sodir etilganlarini fosh etish, balki boshqa turli masalalar yuzasidan birinchi navbatda hududiy ichki ishlari organlariga murojaat qilayotgani ham fikrimizning tasdig'idir.

Bugun qishloqlarimizni kezar ekansiz, aholining turmush farovonligi oshayotganiga bevosita guvoh bo'lasiz. Har bir uyda qo'sha-qo'sha avtotransport vositalari, qad rostlayotgan zamonaviy turarjoylar aholi farovonligi oshayotganining yorqin namunasidir.

Sifatli ta'lim farzandlarimizning har tomonlama bilimli bo'lishi shubhasiz, porloq kelajagimizning asosiy poydevorlaridan biridir. Ixtisoslashtirilgan o'rta ta'lim muassasalaridan tashqari, Prezident maktablari faoliyatining





SALOMATLIK MASKANI

Guliston shahrining markaziy qismida joylashgan Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyat bo'limining hovlisiga qadam qo'yar ekansiz, zamonaviy landshaft, maysalar, gullar, nihollar batartib joylanganligini ko'rasiz. Hovliga rangdor koshinlar qoplangan. Kirish qismi zamonaviy uslubda qayta barpo etilgan. Bunday chiroydan kasalman deb kelgan har qanday odam dardni unutishi aniq.

– Binomiz 2021–2022-yillarda kapital ta'mirlandi, – deydi viloyat IIB Tibbiyat bo'limi sanitar shifokori Ulug'bek Nodirov. – Xonalar tuzilishi, ko'rinishi, joylashuvi ham butkul o'zgardi. Tibbiyat bo'limi bir vaqtida 280 nafar bemorga xizmat ko'rsata oladi. Maskanda 27 ta shifokor faoliyat ko'rsatadi. Ularning ko'pchiligi yuqori toifali mutaxassis. Tibbiyat bo'limi ikkita qismidan iborat: poliklinika va 40 o'rinali gospital.

Poliklinika qismida biz duch kelgan dastlabki shifokor vrach-terapevt Sohiba opa Ikromova bo'ldi. Opaning harakatlarini kuzataman. Fonendoskopi bilan bemorning yurak urishiga emas, qalbiga qulq solayotgandek.

Sohiba Ikromovaning aytishicha, bemorlarda kasb kasalliklari, asab tizimining buzilishi



Ko'z kasalliklari shifokori Gulchehra Anorboyeva.

ratoriya, tibbiyat apparatlari olib kelindi.

Napiroqdagi laboratoriya xonasida uch nafar bir-biridan xushro'y qizlar qandaydir yumush bilan band. Diqqat-e'tiborlari qon tahlillarini o'rganishga qaratilgan.

Zamonaviy rentgen xonasining oldida ham bemorlar navbatini kutib turibdi. Yaqin-yaqingacha bu xonada ishlab chiqarilgan sanasini ko'rsatuvchi yorlig'i ham yo'qolib ketgan rentgen apparati turardi. Endigisi esa raqamli formatda ishlaydigan, rentgen tasvirlarini kompyuter, smartfonga uzata oladigan eng so'ngi model. Eng muhimi, tasvir sifati o'ta yuqori, elektron varianti

ko'p uchrarkan. Shuningdek, o'z vaqtida ovqatlanmaslik, sovuq va issiq sharoitlarda ham xizmat o'tash o'z so'zini aytmay qolmaydi.

– Yangilangan, kapital ta'mirlanganidan keyin sharoitlar butkul o'zgardi, – deydi poliklinika mudiri Furqat Aslanov. – Zamonaviy labo-

esa HD format darajasida. Bemorning qaysi organi tasvirga olinishiga qarab moslasha oladi. Bu esa suratga olishda qo'shimcha qulayliklar tug'diradi.

Gulchehra Anorboyeva Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyat bo'limining oftalmolog-shifokori. U bu maskanda



Tish kasalliklari shifokori Doston Ergashev.

apparati undan-da g'aroyib. Oldingilaridan farqli ravishda bunisi to'liq raqamli texnologiyalar vositasida ishlaydi. Aniqlik darajasi a'lo. Dunyodagi eng yetakchi tibbiyat muassasalariga o'rnatilgan UZI apparatlardan qolishmaydi.

Muassasaning yuqori qavatidagi 40 o'rinali gospitalga ham bir qur nazar solamiz. Toza va ozoda xonalar, bemorning gavda tuzilishi, yotish va o'tirishiga qarab moslashadigan koykalar, pulsatsiya tibtexniklari kishida yaxshi taassurot qoldiradi.

Gospitalda davolanayotgan bemorlar unchalik ko'p emas. Ular orasida ayni paytda xizmat qilayotgan va faxriylarni ham uchratish mumkin. Ular shifokorlarning munosabatidan, yaratilgan sharoitlardan minnatdorligini bildirdi.

Tibbiyat bo'limini ko'tarinki ruhda tark etarkanmiz, bu yerdagi obodlik, fayz ko'nglimizga ham ko'chdi beixtiyor.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.**



Rentgen laboranti Doniyor Qarshiyev.

18 yildan beri faoliyat ko'rsatadi. Uning vazifasi nafaqat ichki ishlar organi xodimlariga xizmat ko'rsatish, balki yangi ishga qabul qilinayotgan nomzodlar, IIV Akademiyasi va litseyga o'qishga topshirgan yigit-qizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdan iborat.

O'tgan yili bu yerga Yaponiyadan eng zamonaviy oftalmologik apparat keltirildi. Uning yordamida bir vatqning o'zida ko'z to'r pardasiga razm tashlash, yetkazilgan jarohatlarini aniqlash, ko'zning gavhari, limfa tugunlari, qon tomirlarining holatini aniqlash, ko'zning ko'rish darajasiga tashxis qo'yish imkoniyati mavjud.

Tibbiyat bo'limiga keltirilgan zamonaviy ultratovushli tashxis

– Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimlari qishlog'imizga kelib mushkulimizni oson qilishdi, – deydi shu qishloqda yashovchi Idris Madrahimov. – Xorijga chiqish pasportini qanday olaman ekan, deb o'yilanib yurgandim. Shundoqqina uyimiz oldiga kelib, xizmat ko'rsatishgani xursand qildi. Bizga bunday e'tibor va g'amxo'rik ko'rsatilayotgani uchun cho'ng'araliklar nomidan minnatdorlik bildiraman.

Shu kuni 12 nafar shaxsga 16 yoshga to'lgani munosabati bilan ID-karta olish uchun, 22 nafar fuqaroga xorija chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish uchun zarur hujjatlar shakllantirildi. Shuningdek, keksaligi, nogironligi yoki boshqa sabablarga ko'ra, kelib murojaat qilish imkoniyati cheklangan fuqarolarning uyiga borib xizmat ko'rsatildi.

O'z muxbirimiz.



Farg'onan viloysi.

ANKLAV HUDUDLARDA SAYYOR XIZMAT

Viloyat tarkibiga kiruvchi bir necha anklav hududlar, xususan, So'x tumani, Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon, Rishton tumanining Cho'ng'ara qishloqlari aholisiga quaylik yaratish maqsadida Ichki ishlar boshqarmasi tashabbusi bilan sayyor migratsiya xizmati yo'liga qo'yilgan.

Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi mas'ul xodimlari barcha zaruriy texnik qurilmalar bilan jihozlangan «Gazel» rusumli zamonaviy avtomobilda anklav hududlarga tez-tez borib, sayyor xizmat ko'rsatishmoqda.

Soha xodimlari o'tgan hafta Rishton tumanining Cho'ng'ara qishlog'i aholisiga sayyor xizmat ko'rsatib, nuroniylarning duosini olib qaytdilar.



Farg'ona viloyati.

Наши корреспонденты сообщают

■ Самаркандская область

Выпускники Академии МВД Республики Узбекистан недавно приступили к своим служебным обязанностям. Лейтенант Жалолиддин Примкулов начал профессиональную деятельность в качестве дознавателя СО при УКД ОВД города Самарканда.



– Решение стать правоохранителем не было случайным, это взвешенный, обдуманный шаг, – признается лейтенант Ж. Примкулов. – Мой выбор поддержали родители, которым очень благодарен. В производстве уголовное дело, связанное с ДТП. Водитель сбил 6-летнюю девочку. Была сложность с обеспечением участия в процессе родителей несовершеннолетней, они находились за пределами страны. Воспитанием ребенка за-

нимались бабушка и дедушка. Благо девочка не сильно пострадала, водитель покрыл расходы на лечение...

– Мой наставник – капитан Сардор Амрулоев, – говорит наш собеседник.

– Под его руководством постигаю тонкости профессии, работаю над углублением знаний в области права и правоприменения. Наставник подчеркивает – время не стоит на месте, надо, не останавливаясь на достигнутом, шагать в будущее.

■ Хорезмская область



В соответствии с принципом «Благоустроенная и безопасная махалля» осуществляется комплекс мер, направленных на раннее предупреждение правонарушений и преступлений, дальнейшее укрепление общественного порядка.

В рамках мероприятия «Безопасная территория» для улучшения криминогенной обстановки в махалле Ашхабад горо-

да Ургенча, отнесенной к «красной» категории, проведены совместные профилактические мероприятия.

Особое внимание уделено вопросам повышения правовой культуры граждан, их участия в деятельности по предупреждению правонарушений. Группы в составе ответственных руководителей работали в разрезе каждой семьи, с каждым жителем махалли.

Аналогичные мероприятия проходят во всех «красных» махаллях области.




■ Ташкентская область

В преддверии самого дорого для узбекистанцев праздника – Дня независимости на территории схода граждан «Нурли замин» Юкоричирчикского района Ташкентской области введен в эксплуатацию современный пункт правопорядка.



Здесь созданы все условия для эффективной работы сотрудников. Пункт правопорядка оснащен компьютерной техникой, современными средствами связи. Он будет обслуживать жителей махаллей Нурли замин, Саховат, Янгихаёт, Жалолтепа, Кизилсой и имени Ахмада Яссави.



▼ Uchinchi sektorda

ERTANGI KUNGA ISHONCH BILAN

Chortoq tumani 3-sektori hududidagi 15 ta mahallada 50 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Yil boshidan buyon hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi hamda xotin-qizlar faollari bilan birgalikda 8473 ta xonodon uyma-uy yurib o'rganilib, mahallalarning ixtisoslashuvi va imkoniyatidan kelib chiqib «o'sish nuqtalari» belgilab olindi.

Sektor hududida 1933 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanib, ularning 460 nafari bo'sh ish o'rinaliga, 70 nafari jamoat ishlarijalb etildi, 738 nafar shaxs o'zini o'zi band qildi. 227 nafar fuqaro bandlik markazi orqali kasb-hunarga o'qitilgan bo'lsa, 84 nafari yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tdi. 354 nafar fuqaroga ijara asosida yer berish orqali bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, 3-sektordagi bo'sh turgan binolarda subsidiya asosida kichik korxonalar tashkil etilib, ayollar va yoshlar ishga joylashtirildi. Masalan, «Turkiston» mahallasidagi bo'sh turgan binolarda ish boshlagan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida 200 nafar ish o'rni yaratildi.

Ayni kunlarda sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Ravshanbek Usujonov boshchiligidagi chorvachilik va bog'dorchilikni rivojlantirish, ijara asosida dehqon xo'jaliklarini tashkil etish, «Saroy», «Qoramurt» mahallalarida dam olish maskanlarini barpo qilish orqali xizmat ko'rsatish va servis sohasida aholi bandligini ta'min-



lash borasida ishlar boshlab yuborilgan.

— Sektor rahbarining sayyor qabulida harbiy safarbarlik chiqirvi rezerviga to'lov qilishda yordam so'rab murojaat qilgandim, — deydi «Oyqiron» mahallasida yashovchi fuqaro Alisher Ahmadjonov. — Menga amaliy yordam ko'rsatildi. Buning uchun minnatdorman.

Qisqasi, sektorda yilning to'rt fasilda ham qaynoq ish jarayoni davom etadi. Qaysidir mahalla ko'chasiga asfalt yotqizish, ichimlik suvi tarmog'ini yangi-

lash, aholi bandligini ta'minlash, oilaviy nizolarni bartaraf etish va yana ko'plab muammolar bosqichma-bosqich hal etilayotganini yuqorida keltirilgan fakt va raqamlar ham isbotlab turibdi. Fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilayotgani va mutasaddi idoralar rahbarlarining ularga e'tibor qaratib, muammolarini bartaraf etayotgani esa odamlarning ertangi kunga ishonchini oshirmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

▼ Mustaqillik tengdoshlari



YURTGA XIZMAT QILISH — BAXT

Toshkent viloyati Parkent tumani IIB xodimi, katta leytenant Komiljon Davlatboyev jannatmonand diyorimizning zabardast posbonlaridan biri.

Komiljon ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini Parkent tumani «Bodomtepa» mahallasi profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. Hozirda tuman IIB Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'limi voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha katta inspektor-psixologgi lavozimida xizmat qilib kelayotgan lavhamiz qahramoni kasidan faxrlanadi.

— Hayotimni ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilishga bag'ishlaganimdan behad mamnunman, — deydi u. — Chunki xalqiga, yurtiga sadoqat bilan xizmat qilishdan-da ustunroq baxt yo'q.

Komiljon Davlatboyev izlanishdan charchamaydi, bilganlarini yosh xodimlarga o'rgatadi, insonlarga yaxshilik qilishni esa hayotining mazmuni deb biladi.

U tizimda o'tkazilayotgan turli tanlov va musobaqalarda ham yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

O'z muxbirimiz.

▼ Minnatdorlik

FIDOYI XODIMLARGA RAHMAT!

Joriy yilning 13-avgust kuni hamkasbim bilan Xiva – Andijon yo'nalihidagi yo'lovchi poyezdida Farg'ona viloyatiga xizmat safariga chiqqan edik. Poyezd Toshkent janubiy vokzaliga tungi 24 lardan keyin yetib keldi. Poyezdimiz vokzalda ma'lum vaqtga to'xtab turishini bilgach, biz ham tashqariga chiqdik. Poyezd birozdan keyin yana yo'lga tushdi. Shu payt men kutmagan holat yuz berdi. Qancha izlamay hamyonimni topolmadim. Hamyonim vokzal hududida tushib qolganmi yo biror joyda unutib qoldirganmanmi, ishqilib yo'qotib qo'ygandim. Zudlik bilan ushbu poyezdda xizmat vazifasini o'tayotgan ichki ishlar organlari xodimlari, safdorlar – Aziz Boymirzayev va Muzaffar Dushamovga yordam so'rab murojaat qildim.

Ular kech soat 2-3 bo'lishiga qaramay tezda zarur choralarni ko'rishi, vokzalagi hamkasblari bilan bog'lanishdi. Oradan ko'p fursat o'tmay hamyonim topilganini aytishdi. Vokzalda unutib qoldirgan ekanman. Xillas, ichki ishlar organlari xodimlari fidoyilik ko'rsatib, o'z xizmat vazifalarini vijdanan bajarib, meni qiyin vaziyatdan qutqarishdi. Hamyonim topilishida katta jonbozlik ko'rsatishdi. Shu munosabat bilan safdorlar Aziz Boymirzayev va Muzaffar Dushamovga, shuningdek, Janubiy vokzalda xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlariga o'z minnatdorligimni bildiraman.

To'raqul XOLIQOV.

Buxoro viloyati.



ИГНА БИЛАН ҚУДУҚ ҚАЗИЁТГАНЛАР

Гузор тумани «Мустақиллик» маҳалласида яшовчи Б.Хайитов дарвозахонада турган автомашинасини кўрди-ю, капалаги учди: машинасининг баллон ва дискалари йўқ эди. Ўзига келгач, бу ҳақда тезда «102» хизматига хабар қилди.

Тергов-тезкор гурӯҳи томонидан воқеа жойидан олинган ашёвий далил сифатида З та қўл-бармоқ излари вилоят ИИБ ЭКМдаги дастур ёрдамида текширилганда, излар Қарши шаҳрида яшовчи Ф.Маматов (исм-шарифлар ўзгартирилди), Х.Ҳамидов

ва А.Олтиевга тегишли экани ойдинлашди.

Бу Қашқадарё вилояти ИИБ ЭКМ ходимлари фаолиятидан бир мисол холос.

Жорий йилнинг ўтган даврида соҳа ходимлари 106 марта тергов-тезкор гурӯҳи таркибида



ўғрилик жиноятлари содир этилган ҳодиса жойларини кўздан кечиришда қатнашиб, 702 та ашёвий далил олишган. Энг муҳими, олинган ашёвий далиллар орқали қарийб 70 фоиз жиноятлар «иссиқ изи»да очилди.

Бугунги кунда Эксперт-криминалистика марказида фаолият кўрсатаётган эксперталар етти йўналишда экспертиза ўтказиш ваколатига эга. Айниқса, марказ бош эксперталари – подполковниклар Шерали Мұхаммадиев, Зафар Бердиев, катта лейтенант Абдураззоқ Худойбердиевлар ҳар жабҳада ҳамкасларига ўрнак бўлмоқда. Улар бир неча турдаги экспертизаларни ўтказиб, билим ва малакасини шогирдларига ўргатиб, мураббийлик ҳаракатининг кенг қулоч ёйилишига катта ҳисса қўшишмоқда.

**Содик РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.**

Қашқадарё вилояти.



Беҳзод ўқувчилик йилларида ёқ ички ишлар органи ходими бўлишга қатъий аҳд қилган эди. Бунинг боиси амакилари Ҳабиб ва Жалил Ҳасановлар узоқ йиллар шу соҳада хизмат қилиб, обрў-эътибор билан пенсияга чиқишиганди.

қиларкан. – Хайрият, бунинг удасидан чиқдик. Беҳзод тез орада ўрганиб кетди. Шу-шу бирга елкама-елка хизмат қилдик. Пенсияга чиққанимдан сўнг, унинг ўзи мустақил ишлай бошлади ва ишончимни оқлади.

Дарҳақиқат, капитан Беҳзод Ҳасанов мана уч йилдирки, вилоят ИИБ ЭКМ махсус тадқиқотлар гурӯҳи катта эксперти лавозимида фаолиятини давом эттириб келмоқда. Игна билан қудук қазиш каби машақатли вазифасини синчковлик билан, пишиқ-пухта бажаришга интилмоқда.

2022 йил давомида жами 460 маротаба, жорий йилнинг етти ойи давомида эса 255 та тадқиқот олиб борди. Жумладан, гиёҳвандлик воситаларига оид 41 та ҳолатни аниқлади. Қаҳрамоннимизнинг файратига ҳавас қилса арзиди. У нафақат жиноятларни аниқлаш бўйича тадқиқотлар ўтказяпти, балки содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олдини олишда ҳам ташаббус кўрсатяпти.

Кимё фанига бўлган қизиқиш уни Бухоро давлат университетининг кимё факультетига етаклади. Дипломли бўлгач, ўзи туғилиб ўсган Шофиркон туманидаги 3-сон умумий ўрта таълим мактабида кимё фанидан ўқувчиларга сабоқ берди.

2017 йили орзузи амалга ошган лавҳамиз қаҳрамони вилоят ИИБ

ЭКБ криминалистик экспертиза бўлинмаси эксперти лавозимида хизматга қабул қилинди.

– Беҳзод кимё соҳасини яхши билсада экспертиза хulosасини чиқаришга келганда чўчирди. Бизнинг вазифамиз эса ўзига ишончини кучайтириш эди, – дейди истеъфодаги майор Шавкат Облоқулов шогирди ҳақида ҳикоя

– Хизматим давомида устозим Шавкат Облоқуловдан соҳанинг кўплаб хусусиятларини ўргандим. У киши экспертиза тадқиқотида аҳамиятсиз жиҳатлар бўлмаслигини, ҳар бир нарсага эътибор билан қараш кераклигини қайта-қайта тайинлардилар. Шу ўғитларига амал қилиб кам бўлмадим, – дейди капитан Б. Ҳасанов.

Беҳзод намунали оила бошлиғи. У турмуш ўртоғи Дилдораҳон билан мустаҳкам оила қасрини бунёд этиб, шириндан-шакар фарзандлари Комилжон ва Камолаҳоннинг тарбиясига алоҳида эътибор беришяпти. Айниқса, Дилдораҳон мактабгача таълим ташкилотида тарбиячи бўлиб ишлагани боис, кўпроқ фарзандларига вақтини ажратади. Беҳзод ҳам хизматдан бўш пайтлари оила даврасида бўлишга интилади.

**Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.**

Бухоро вилояти.

НЕЗАВИСИМОСТЬ – ВЕЛИКАЯ ЦЕННОСТЬ

С обретением государственной независимости народ Узбекистана выбрал свой путь – путь к прогрессу и процветанию, построению правового демократического государства и движется к цели уверенными шагами, достигая весомых результатов, осуществляя грандиозные реформы.

За 32 года – короткий по историческим меркам промежуток времени в республике появились тысячи предприятий, организовано множество кластеров и фермерских хозяйств, которые производят и выращивают практически все, что сейчас можно увидеть на полках магазинов. Преобразился облик городов, построено и возводится масса кварталов, появились целые отрасли и сферы, которых прежде не было.

Кардинально изменилась, особенно в последние годы, система образования. Делая ставку на молодых людей, которым предстоит решать еще более глобальные задачи на пути прогресса, руководство страны уделяет особое внимание вопросам повышения качества дошкольного, школьного, среднего специального и вузовского образования.

Внедряются новые формы обучения, используются лучшие педагогические методики, повсеместно создаются условия для глубокого овладения знаниями, подготовки высококвалифицированных специалистов.

С обретением Узбекистаном государственной независимости была начата реализация широкомасштабных реформ во всех сферах. В последние годы этот процесс ускорился в разы. Выдвижение на первый план обеспечения прав и интересов человека, уважение его чести и достоинства еще больше сплотило наш многонациональный народ. Изменения коснулись не только сфер экономики, образования, здравоохранения, но и материальной поддержки соци-

ально уязвимых слоев населения. По инициативе Президента созданы «железная», «женская» и «молодежная» тетради, благодаря которым гражданам оказывается адресная помощь.

На качественно новый уровень вышло и предпринимательское движение. Учреждение в Узбекистане Дня предпринимателей стало признанием роли бизнеса и деловой инициативы в обеспечении устойчивого социально-экономического развития страны.



В последние годы осуществляется масштабная комплексная работа по структурному преобразованию экономики. Одним из драйверов этих процессов



определенна туринаустрия. Прорывные проекты в отрасли осу-

ществлены и во внешней политике государства. Новый Узбекистан открыт миру, готов сотрудничать со всеми государствами, на благо людей, во имя прогресса, процветания и взаимовыгодного партнерства.

Реформы, проводимые в республике, направленные на повышение качества жизни населения, защиту прав и интересов человека красной нитью обозначены в указах и постановлениях Президента Шавката Мирзиёева, в обновленной Конституции страны. В их основе главный принцип: «Достоинство человека, интересы народа – наивысшая ценность».

За годы независимого развития страны перемены коснулись и Вооруженных Сил, органов внутренних дел. Кардинально изменились призыв на срочную военную службу, отношение молодых людей к службе в армии, профессии защитника Родины и правопорядка. Созданы центры подготовки соответствующих специалистов, увеличена интенсивность проведения практических занятий и учений, активно внедряются инновационные формы и методы обучения.

В стране последовательно реализуются Концепция общественной безопасности и Стратегия развития системы обеспечения общественной безопасности на 2022–2025 годы. На основе этих документов впервые были определены задачи и механизмы совместной деятельности государственных органов по обеспечению надежной безопасности граждан в каждом районе и городе. Сотрудники органов внутренних дел служат прочной опорой государства и общества в успешной реализации реформ, осуществляемых в Новом Узбекистане на основе благородной идеи «Во имя чести и достоинства человека».

**Сирожиддин ДЖУРАБАЕВ,
соб. корр.**



ществляются благодаря солидному пакету льгот и преференций, предоставленных государством. Важным шагом для развития отрасли стало решение о провозглашении города Самарканда туристскими воротами Нового Узбекистана. Это придало импульс динамичному развитию одного из признанных центров культуры, повышению его популярности среди путешественников всего мира.

Гордостью Узбекистана и точкой притяжения стал построенный в Самарканде к саммиту Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) международный туристский центр «Silk Road Samarkand». Многофункциональный центр включает в себя восемь современных отелей, конгресс-холл, комплекс «Вечный город», амфитеатр и другие объекты. Он способен обслуживать два миллиона туристов в год. Осенью 2023 года здесь пройдет Генеральная ассамблея Всемирной туристской организации (ЮНВТО).



Профилактика хизмати

ХУДУДЛАР ОСОЙИШТА БЎЛСИН ДЕБ...

Мирзачўл тумани ИИБ ЖХХ Ҳукуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаси ходимлари томонидан жорий йилнинг ўтган даврида «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамоили асосида маҳаллалар «қизил», «сариқ» ва «яшил» тоифаларга ажратилиб, мос равишда профилактик чоралар белгиланмоқда.

Табиийки, мазкур жараёнда муқаддам судланганлар, жазони очиқда ўтаётганлар, ички ишлар органлари ҳисобида турганлар, ўзаро низолашаётганлар ва оиласий келишмовчиликка эга бўлган шахсларга эътибор қаратиляпти. Уларнинг бандлиги таъминланиб, ҳукуқий

ва психологияк ёрдамлар кўрсатилмоқда. Шу билан бирга, туманимизнинг Қозогистон Республикаси билан ёндош ахоли пунктларида фуқароларга чегардан ноқонуний ўтмаслик ҳамда контрабанда йўли билан маҳсулотлар ташимаслик борасида тушунтиришлар бериляпти.

Қолаверса, ўғрилик, фирибагарлик ҳамда гиёхвандлик воситалари билан боғлиқ жиноятлардан сақланишга қаратилган тарғибот тадбирлари ўюстирилаётир. Ахоли гавжум жойлар, ташкилот ва корхоналар, савдо ва майший хизмат кўрсатиш шохобчалига кузатув камералари ўрнатиляпти.

Соҳа вакиллари жорий йилнинг ўтган даврида 7 та жиноятни фош этишди ҳамда бир нафар қидирудаги шахсни қўлга олдилар. Шунингдек, 38 нафар фуқарога ҳимоя ордери берилди, 35 та оиласий низога чек қўйилиб, 7 та ажримнинг олди олинди.

Капитан Камолиддин Илёсов, майорлар Курбон Мусаев, Жамшид Норқулов каби профилактика инспекторларимиз қонун-



бузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашиборасида ҳамкасларига ўрнак бўлишаётир. Миллий гвардия, коммунал, тиббиёт тизимлари ходимлари ва маҳалла фуқаролар йигинлари фаоллари билан яқин ҳамкорлик йўлга қўйилган.

Криминоген вазияти оғир маҳаллаларда тунги патруллик ташкил этилган. Бу каби саъй-ҳаракатлари-

миз натижаси ўлароқ, жорий йилнинг ўтган даврида туманимиздаги 12 та маҳалланинг 8 тасида жиноят содир этилишига, 2 тасида эса жиноятчиликнинг ўсишига йўл қўйилмади. Қисқаси, профилактик тадбирларни кучайтириш орқали туманда осойишталикни таъминлаш учун бор имконият ишга солинмоқда.

**Самад ЯКУБОВ,
капитан.**

Жиззах вилояти.



Соҳа фидойилари

ДАРАХТ БИР ЖОЙДА КЎКАРАДИ

Олтиариқ туманида туғилган Шавкатжон Бойдаев ички ишлар органларидаги хизмат фаолиятини 1997 йил Марғилон шаҳар ИИБда вояга етмаганлар ишлари бўйича инспектор лавозимидан бошлаган. Кейинчалик 20 йилга яқин профилактика инспектори, катта инспектор бўлиб маҳаллаларда хизмат қилди. Бир муддат ҳукуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаси бошлиғи вазифасида ҳам фаолият кўрсатди.

– 25 йилдан бўён Марғилон шаҳар Ички ишлар бўлимида турли вазифаларда фаолият кўрсатиб келяпман, – дейди ИИБ Ташкилий бўлинмаси бошлиғи Шавкатжон Бойдаев. – Хизматга энди кирган пайтимда Алижон Отажонов, Акрамжон Аҳмаджонов, Абдулаттор Нурматов каби устозлардан касб сир-асрорларини ўрганган



эдим. Бугун ўзим ҳам устоз бўлиб, тўплаган тажрибамни баҳоли қудрат ёшларга, шогирдларимга ўргатяпман. «Дарахт бир жойда кўкаради», деганларидек, шу ерда дўст-ёр орттиридим, хизматда яхши натижаларга эришдим.

Бошқа хизмат, бошқа ҳудуд учун қадрдан жамоамни, шогирдларимни ташлаб кетгим келмайди.

– Устоз одамлар билан тезда тил топишади, – дейди Марғилон шаҳар ИИБ профилактика катта инспектори, майор Азимжон Неъ-

матов. – Биз кўп масалаларда у кишидан маслаҳат ва ёрдам сўраймиз. Ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаб, билмаганларини эринмай ўргатади.

Марғилон шаҳар ИИБ шахсий таркиби орасида соҳага оид ҳужжатларда бирор тушунмовчилик юзага келса, «Майор Бойдадаевдан сўраб кўринг», деган гап ҳам бор. Чунки Ш.Бойдадаев ҳақиқатан ҳам меъёрий ҳужжатларни қандай юритишни, қолаверса, профилактика хизматига оид қонунчиликни ипидан игнасигача яхши билади.

Лавҳамиз қаҳрамонининг касбга садоқати ва фидойилиги муносаб эътироф этилган. 2018 йилда Ватан ҳимоячилари куни арафасида Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли фармонига кўра, «Шұҳрат» медали билан мукофотланган.

**Абдувосит СИДИҚОВ,
ӯз мухбиримиз.**

Фарғона вилояти.

TO'MARIS – OZODLIKNING YORQIN NAMUNASI

Bepoyon va betakror yurtimiz tarixining zarvaraqlaridan joy olgan bitiklardan bahramand bo'lgan inson bir necha asrlardan buyon avlodlarga o'zlarining mardligi va jasorati bilan namuna bo'lgan ota-bobolarimiz qatori, yuksak salohiyati va benazir aql-zakovati, botirligi va jasurligi bilan hamon qalbimiz to'rida saqlanib kelayotgan momolarimiz ham juda ko'pchilikni tashkil etishiga guvoh bo'ladi.

Ikki yarim ming yildirki, asotirlar bag'riga singib ketgan afsonaviy jang-u jadallarda g'oliblik sharobi ni totgan, qabiladoshlari qalbida vatanparvarlik, el-yurtga muhabbat hislarini uyg'otgan jasur sarkarda, massagetlar malikasi To'maris ana shunday sharaflı shaxslardan biri hisoblanadi.

To'maris – Turon xalqlarining Ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» asarida yozilishicha, Ahamoniylar davlati asoschisi Kir II miloddan avvalgi 530-yilda Turonga bostirib kirganida, To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan.

Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo'yulari va Qizilqumda yashashgan. To'maris massagetlar podshosining xotini bo'lib, u erining vafotidan so'ng davlatni boshqargan. Erondan kelgan bosqinchilar qo'shini bilan massagetlar o'tasida shiddatli janglar bo'lgan.

Eron shohi elchisiga «Agar To'marisni xotin qilib olsam, uning fuqarosi o'z-o'zidan menga qaram bo'lib qoladi, urushib o'tirishga hojat qolmaydi. Sening vazifang – mening shu rejamni ro'yogga chiqarishga yordam berishdan iboratdir...», deb alohida topshiriq beradi. Shahan-



shohning una emas, yurtiga oshiq bo'lib qolganini sezgan massagetlar malikasi jahl bilan bu taklifni rad etib, elini una qul qilib topshirishni istamasligini aytadi...

Ikki o'ttada jang bo'lishi muqarrar edi. Ayg'oqchilarning dush-

man qo'shini daryodan o'tishga taraddud ko'rayotgani, yog'och va qamishlardan solar yasayotgani haqidagi xabaridan so'ng To'maris jang ko'rgan keksalar bilan maslahatlashadi. Chollardan biri ko'prik qurayotgan eroniylarni o'qqa tutib, o'ng qirg'oqqa o'tkazmaslikni maslahat beradi. Ammo malikaning jasur o'g'li Siparangiz agar shunday qilsa, boshqalar massagetlar eroniylardan qo'rqib bu tomonga o'tkazmadi, deb ayyuhannos solishini aytib, daryoning bu betiga o'tishiga to'sqinlik qilmay, o'tib bo'lganidan keyin jang qilishini elchi orqali bildirish taklifini beradi.

Shu tariqa, son-sanoqsiz dushman askarlari hech bir moneliksiz bu tomonga o'tib olishadi. Ammo bir hafta o'tsa hamki, massagetlarni topisha olmaydi. Ular elchi orqali massagetlarning sharob ta'mini totib ham ko'rmanagini bilgan edi. Shu bois garchi oralaridan bir kishi, massagetlarning mardligiga hiyla bilan javob qaytarmaslik kerakligini aytgan bo'lsa-da, makr yo'lini tutishadi.

Bu tuzoqqa Siparangiz boshchiligidagi jasur yigitlar tushadi. Umrida sharob ichmagan yigitlarga u o'z ta'sirini o'tkazadi. Dushmanning rejasi ham shu edi. Dushman qo'liga tushgan Siparangizning nomusdan o'limni afzal bilganiga hatto Eron shohi ham tan beradi...

Siparangiz va safdoshlarining halokatli o'limi To'maris va boshqa massagetlarning qahr-g'azabini kuchaytiradi... To'maris o'g'lining halokatidan esankirab qolmay, o'z xalqining manfaatini o'yab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishi-



ni so'raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o'ttada ayovsiz jang bo'lgan.

Yengil g'alabadan havolangan dushman podshohi va hali char-chamagan, tish-tirnog'igacha qurol-langan qo'shin bilan jang qilishdan oldin ularni charchatish kerakligini anglagan To'maris turli rejalar tuzadi. To'maris o'zini chekinayotgan qilib ko'rsatib, shiddatli jangga tayyorgarlik ko'radi. To'marisning askarlari orasida ayollar jang qilishda erkaklardan qolishmasdi. Ona Vatanga bo'lgan muhabbat, dushmanaga nafrat, bitta ezgu maqsad yo'lida birlashish massagetlarning g'alabasini ta'minladi.

Gerodot massagetlar va forslar o'tasidagi jang tafsilotlarini o'z asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o'tasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo'lgan. Avval har ikkala qo'shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o'qqa tutdilar. Kamon o'qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq vaqt davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozondilar. Fors qo'shinarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo'lgan. Uning jasadi topilgach, malika (To'maris)ning buyrug'i bilan bosqinchining kesilgan boshi qonga to'lg'azilgan meshga solingan».

**Sherzod ABDUSAMADOV
tayyorladi.**



По туристическим маршрутам

МУЗЕЙ ПОД ОТКРЫТЫМ НЕБОМ

Множество объектов Хивы внесено в Список объектов всемирного наследия ЮНЕСКО. С незапамятных времен город являлся важным пунктом на Великом шелковом пути. Величайшие умы человечества посвящали ему оды, ведь красота и уникальность Хивы вдохновляет.



По инициативе руководства УВД Андижанской области и Совета ветеранов для представителей старшего поколения была организована поездка в древний город.

— Во время экскурсии мы посетили крепость Иchan-Кала, — рассказывает председатель ветеранской

организации ОВД Шахриханского района подполковник в отставке Анваржон Зокиров. — Мощная глинобитная стена высотой до 10 метров, окружающая внутренний город, имеет четверо ворот — на каждой стороне света. Перед нашим взором предстали величе-



ственны минареты, караван-сарай, резиденция хана. Поднимались на смотровую площадку — зрелище непередаваемое.

— Особое впечатление произвела Джума-мечеть, построенная в X веке, — вступает в разговор полковник в отставке Омонбай Мамасолиев. — Здесь сохранились 213 резных деревянных колонн, относящихся к разным периодам. Поразило красотой медресе Амира-Тура, возведенное в 1870 году. Оно расположено в северной части Иchan-Калы, среди жилых построек. Главный фасад медресе представлен высоким порталом с восьмигранной нишей и двухэтажной аркадой крыльев. В декоре угловых башенок-гульдаста и их куполов использованы переливающиеся майоликовые плитки. В окнах худжр сохранились ажурные ганчевые решетки.

— Хива на протяжении веков была и остается центром науки и просвещения, — говорит майор в отставке Алижон Кучкаров. — Хивинцы гордятся тем, что здесь творили великие умы человечества, в числе которых гениальный математик, астроном, географ Мухаммад аль-Хорезми. Памятник выдающемуся ученому воздвигнут у западных ворот Иchan-Калы. Аль-Хорезми изображен в момент углубленных размышлений над очередным трактатом.

Ветераны органов внутренних дел получили массу положительных впечатлений от поездки, выразили искреннюю признательность организаторам.

**Давронбек ЮСУПОВ,
подполковник в отставке.
Фото автора.**



Молодежь — наше будущее

«В НАС ВЕРЯТ, НАМ ДОВЕРЯЮТ»

Мир и спокойствие — бесценные блага. Оберегать их — одна из самых ответственных профессий.



На снимке: сотрудник ППС рядовой Аброрхон Ахмадхонов (слева) и сотрудник ДПС рядовой Аббос Хожибоев во время несения службы.

Сотрудник третьей группы первой региональной территории ППС УВД Ферганской области рядовой Аброрхон Ахмадхонов достойно несет службу на столь почетном поприще.

Аброрхон родился и вырос в Алтыарыкском районе. Страж порядка, которому недавно исполнилось 25 лет, каждое утро получает благословение отца, Аюбхон ака, и матери, Малохатхон, желающих сыну успехов в его благородном деле.

Рядовой А. Ахмадхонов в составе пешего патруля выходит на маршрут. Ничто не ускользнет от его бдительного взгляда.

На улице Мустакиллик Аброрхон и его напарник обратили внимание на автомобиль, припаркованный на обочине. Водитель, увидев сотрудников, забеспокоился, повел себя подозрительно. В ходе проверки с участием понятых в салоне транспортного средства было обнаружено холодное клинковое оружие...

— Задача — предупреждать и пресекать любые противоправные действия, реагировать — без промедления. От наших действий во многом зависит спокойствие людей, — говорит герой очерка. — Соотечественники в нас верят, нам доверяют.

Кстати, рядовой А. Ахмадхонов обучается на заочном отделении Университета Альфраганус в Ташкенте, изучает психологию. Он поставил перед собой цель — получить высшее образование, стать офицером.

**Абдуносит СИДИКОВ,
соб. корр.
Ферганская область.**



Сиз кутган учрашув

ШАФОАТ РАҲМАТУЛЛАЕВА: «ОТАМГА БЕРГАН ВАЪДАМНИНГ УСТИДАН ЧИҚДИМ»

Ўзбекистон халқ артисти Шафоат Раҳматуллаева 1941 йилнинг 4 январида Фарғона вилояти Фурқат тумани Навбаҳор қишлоғида таваллуд топган.

Ўрта мактабни тугатганидан сўнг Қўқондаги педагогика билим юртида, кейинроқ Тошкент театр ва рассомлик институтининг мусиқали драма факультетида ўқиган.

У кўп йиллар Сирдарё вилояти мусиқали драма театрида фаолият кўрсатган. Ҳозирда Ҳамза номидаги Қўқон шаҳар мусиқали драма театрида ижод қилмоқда.

— Шафоат опа, интервьюларингизнинг бирида болалиқдан санъатга қизиқанингиз, аммо бунга отангиз қаршилик қилгани, кейинчалик у кишига ваъда бериб, барибир санъат йўлини танлаганингиз ҳақида гапиргандингиз. Келинг, шу ҳақда батаф-силоқ сўзлаб берсангиз.

— Дадам раҳматли колхоз раиси бўлиб ишларди. Жуда қатъиятли, бир сўзли, эл-юрт орасида катта обрў-хурматга эга инсон эдилар. Ўрта мактабни тамомлаганимдан сўнг Қўқондаги педагогика билим юртига ўқишга кирдим. Шу ерда ўқиб юрган кезларимда ҳам санъатга иштиёқим баланд эди. Билим юртидаги драма тўғарагига қатнашардим. Ҳеч ёдимдан чиқмайди, 1957 йили «Ўзбекфильм» ижодкорлари Қўқонга кастинг ўтказиш учун келишиди. Ўшанда «Мафтунингман» фильмига актёрлар сараланаётган экан. Гуруҳимиздан мен билан яна иккита қизни кастингдан ўтказишиди. Бизни суратга тушириб кетишиди. Лекин ижромиз ҳақида ҳеч нарса айтилмади. Орадан бир йил ўтиб, мени Тошкентга чақиришиб. Замира ролига тасдиқланган эканман. Афсуски, қувончим узоққа бормади. Бундан хабар топган отам қаттиқ қаршилик қилдилар.

Шундай қилиб ҳозиргacha халқимизга ардоқли бўлиб келаётган кинода ўйнаш насиб қилмади. Замира ролини Раъно Ҳамроқулова ижро қилди. Санъат эшиги мен учун ёпилганди.

Ўқишини битириб, бошланғич синфларга дарс бера бошладим. Тақдирга тан берсам-да, радиодан бирор хониш бошланса, юрагим ҳапқира бошларди. Санъатга, мусиқага қайтгим келаверарди. Юрак ютиб дадамга орзум ҳақида сўз очдим. Дадам яна қарши чиқдилар. Роса йиғладим, ичимга чирок ёқса ёришмасди. Бирданига қаттиқ касал бўлиб, бир ойча ётиб қолдим. Ҳароратим баланд, мажолим йўқ. Ишонсангиз, тузалиб кетишимга ўзимда ҳам, яқинларимда ҳам ишонч қолмаганди. «Тузалиб кетса, нима деса айтганини қиламан», дедилар отам ҳолимга ачиниб.

Шу гапдан сўнг тузалишга куч топгандек бўлдим. Санъатга бўлган иштиёқим юқориилигига тан берган отам охири қатъийлик билан шундай деди: «Феълимни яхши билсан, қизим. Тўрт қиз ўстирияман. Сизларнинг орқаларингдан ёмон гап эшитишни хоҳламайман. Сенга шартим шуки – аввало халқ тан ола-диган санъаткор бўлгин. Қолаверса,

улуғ устозлар тан олсин сени. Шундай санъаткор бўла олсанг, майли розиман. Агар тўйма-тўй юриб кетадиган яллачи бўлсанг, асло сендан рози бўлмайман». Мен отамга худди шу йўлдан кетишига, халқ тан оладиган санъаткор бўлишга ваъда бердим. Отамнинг ўша шарти ҳалиҳамон қулоғим остида жаранглаб турди.

— Отангиз сизнинг ютуқларингизни кўрдими?

— Афсуски кўролмади. Дадам рози бўлгач, 1963 йили Тошкент театр ва рассомлик институтига ўқишга кирдим. Кейинроқ Сирдарёда театр очилибди, ёшларни қабул қиляпти экан, деган гап тарқалди. Бир гуруҳ ёшлар: мен, Диас Раҳматов, Элдор Мирсаидов, Эсон Лутфуллаев ва бошқалар Сирдарёга қараб йўл олдик.

Шароит оғир бўлса-да, спектакларда бор истеъодидимни ишга солиб қатнаша бошладим. Режиссрларга маъқул келди, шекилли, тез орада фақат бош ролларни ўйнайдиган бўлдим. Албатта, хурсанд эдим. «Икки ўт орасида», «Бир қизга минг ошиқ» номли спектакллар мен учун энг унунтимас лавҳалар бўлиб қолди. Бу орада тор чалишни ўзлаштиридим. Чунки концертлар ҳам уюштирадик.

1969 йили ёзда Чимкентга гастролга бордик. 22 июнь куни «Тўлин ой» спектакли билан парда очдик. Ўша куни кечаси дадам Қўқонда автоҳалокат туфайли вафот этган экан. Уйдан Жиззахга телефон қилишган. Амаким театр раҳбари билан гаплашса, директоримиз «Икки спектаклда бош ролни ижро қиляпти, ўрнига одам йўқ. Агар ҳозир қайтиб кетса, гастролни шу ерда тўхтатишига мажбур бўламиз, айтмай қўяқолайлик», дебди. 25 кунлик сафаримиз тугади. Бошқарувчимиз турмуш ўртогим иккимизга Тошкентгача билет олишибди. Қолганлар Душанбе шаҳрига кетишадиган бўлди. Сабабини сўрасам, отангизнинг мазаси йўқ экан, Қўқонга борармишсиз, деди. Таажжубланиб йўлга тушдим. Уйга келсан, дадамнинг вафот этганига йигирма кун бўлган экан. Отамнинг қабрини зиёрат қилдим.

Онам Қумрихон Нозирхўжа эшон қизлари доира чалиб, қўшиқ айтардилар. Қўнгилчанлик ва санъатга иштиёқмандлик менга онамдан ўтган. Қишлоқда ҳамма раис хола, дерди онамни.

Сирдарёда театрда ишлаб юрган пайтларимда онам бетоб бўлиб



қолдилар. Шу сабабли туғилиб ўсган юртимга, Қўқонга қайтиб келдим. Мақсадим, онамга қарашиб эди. Келганимдан сўнг кўп ўтмай 87 ёшида оламдан ўтдилар. Шундан сўнг Қўқонда қолиб ижодимни давом эттирдим. Ҳамон онамнинг эзгу фазилатлари, сўзларини кўмсайман...

— Театрда кўплаб ролларни қойилмақом қилиб ижро этгансиз. Аммо бугунги томошабин, айниқса, ёшлар сизни кўпроқ кино орқали танийди.

— Мен кинога кечроқ кириб келганиман. 1987 йилда Ҳотам Файзиев суратга олган «Оқ бино оқшомлари» фильмига мени таклиф этишиди. Кейин орада бироз танаффус бўлди. 1994 йилда Шароф Бошбековнинг «Масҳараబоз»ида суратга тушдим. 1998 йилда эса Рашид Маликовнинг «Пиёда»сида ўйнадим. Шундан сўнг таклифлар кўпайиб, қатор кинофильмларда роль ижро этдим.

— Ўзбек болалари сизни Худойберди Тўхтабоевнинг «Сариқ девни миниб» асари асосида суратга олинган «Сехрли қалпоқча» фильмидаги Ҳошимжоннинг бувиси сифатида яхши танишади.

— Дарҳақиқат, бу фильмда жуда маҳоратли актёрлар йиғилган эди. Мухаммадисо Абдулҳаиров, Фотима Режаметова, Тоҳир Саидов, Дилбар Икромова билан бир сафда туриб ижод қилдик.

Шўхлигидан ҳатто қўшнилари ҳам безор бўлган Ҳошимжоннинг бувиси ролини ўйнаш, албатта, менга жуда ёқди. Ҳозир ҳам ёшлар билан учрашувларга боргудек бўлсан, болалар менга ишора қилиб: «Ана, Ҳошимжоннинг бувиси келяпти», деба ўйнади. Саволлар ҳам кўпроқ шу фильм хусусида бўлади.

— Ўзбек театр ва кино санъатининг кўплаб дарғалари билан ижод қилган устоз ижодкор сифатида бугун театр ва кинога кириб келаётган ёшлар ҳақида нима дейсиз?

— Худога шукрки, буюк санъаткорлар билан ижод қилиш насиб этган, улардан дуо олганман. Бугун эса ўзимнинг ҳам юзлаб шогирдларим бор. Юртбошимизга раҳмат. Илтимосларимизни инобатга олиб, 2017 йил 16 августда «Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг Фарғона минтақавий фи-

Ш. Раҳматуллаева театр ҳамда кинофильмларда 150 га яқин ролларни ижро этди. «Фидойилар», «Мехробдан чаён», «Қўшчинор чироқлари» видеофильмлари, «Севгинатор», «Ўзимдан ўзимгача», «Айғоқчи кампир», «Орзу ортида», «Эр бермоқ – жон бермоқ», «Йиғламагин», «Қарздор», «Чашма», «Осмон яқин», «Мерос» каби бадиий фильмлардаги образлари кино ихлосмандлари орасида эътибор қозонган.

лиалини ташкил этиш тўғрисида»ги қарорни қабул қилдилар. Қўқонда фаолият кўрсатадиган ушбу институтда бугун 1500 нафарга яқин ёшлар таҳсил олишишмоқда. Ўзим ҳам шу институтда дарс бераман. Талабалар орасида ўзини санъатга баҳшида қиламан деган, кўзлари ёниб турадиган иқтидорлилари жуда кўп.

— Газетамизнинг асосий ўқувчилари ички ишлар органлари ходимлари ва уларнинг оила аъзолари саналади. Сиз бугунги ички ишлар органлари ходимлари ҳақида қандай фикрдасиз?

— Мен ички ишлар органлари ходимларига доим ҳимоячи ва суюнчиқ сифатида қараганман. Қўқон шаҳар Ички ишлар бошқармаси билан доим ҳамкорликни яхши йўлга қўйиб келганимиз. Театримиз жойлашган маҳалла профилактика инспектори ҳам доим биздан хабар олиб турди. Улар борки, биз тинч ва хотиржам яшаемиз, ухляямиз, бехавотир ижод қилямиз. Мен уларга куч-кувват тилайман. Ҳимоячиларимиз ҳар вақт соғ бўлишсин.

— Мустақилларимизнинг 32 йиллик байрами яқинлашиб келмоқда. Сиз учун мустақиллик тушунчаси ва Ватан туйғуси нима? Ҳалқимизга байрам тилакларингиз...

— Мустақиллик менга баҳт ва омад олиб келган. Нима учун дейсизми? Юртимиз мустақил бўлган йиллари мен Сирдарёда ишлар қилиб ёқди. Бирин-кетин бошимга баҳт қуши қўниб, давлатимиз ва ҳалқимиз эътироғига сазовор бўлдим. 1992 йилда «Ўзбекистон халқ артисти» унвони берилди, 2018 йили «Фидокорона хизматлари учун» ордени билан мукофотландим. Энг асосийси отамга берган ваъдамни баҳардим. Бундан ортиқ баҳт борми? Юртимиз тинч. Шаҳар ва қишлоқларимиз тобора обод бўлиб, ватанимиз дунёга юз тутмокда. Фурсатдан фойдаланиб, барча юртдошларимизни истиқлол айёми билан табриклайман. Ҳар кунимиз байрамларга, яхшиликларга тўла бўлсин!

Ўз мухбиришимиз
Абдувосит СИДИҚОВ
суҳбатлашди.



Терговни билимдонлар олиб боради

«ФАҚАТ ҲУҚУҚИЙ-КРИМИНАЛИСТИК БИЛИМЛАР КАМЛИК ҚИЛАДИ», – дейди подполковник Сирожиддин Субҳонқұлов

Навоий кон-металлургия комбинати (НКМК) мамлакатимиздаги әңг үйрек саноат корхоналаридан бири. Айтиш мүмкінки, вилояттинг 30–40 фойз ахолиси шу корхонада ишлайды.

Корхона ҳудудида жиноят ва ҳуқуқбузарларларнинг олдими олиш вилоят ИИБ НКМК ИИБ ходимларининг зиммасида. Улар барча кон бошқармаларида ҳуқук-тартиботни таъминлаш мақсадида хизмат олиб борышади. Нафсина жиловлаган, амалдаги қонун-қоидаларга қаттый риоя этадиган инсонлар ҳалол ишлаб топганини оиласи билан баҳам күради, албатта. Аммо корхонанинг мол-мұлкігі күз олайтирадиган кимсалар ҳам топилиб туради, таассуфки.

Навоий вилояти ИИБ НКМК ИИБ ҳузуридан Тергов бўлинмаси катта терговчиси, подполковник Сирожиддин Субҳонқұлов шу кунларда бир жиноятни очишга муваффақ бўлди. Унинг юритувидаги жиноят иши материалларига кўра, Марказий кон бошқармасига қарашли нефть маҳсулотлари марказий базасидан ҳар куни ёқилғи олиб ишлатадиган ҳайдовчи ёқилғининг сифатига норозилик билдирган.

Аниқроғи, сифатсиз ёқилғи сабаб ўзининг бошқарувидаги кон транспорти ишдан чиқсанлиги боис, ҳайдовчи НКМК ИИБга мурожаат этишга мажбур бўлган.

Мазкур ҳолатни ўрганиш чоғида Сирожиддин Субҳонқұлов дастлаб ёқилғи базасидаги ҳужжатларни кўздан кечирди. Ҳужжатлар бир қарашда жойидадек эди. Аммо захирадаги олий навли ёқилғи сақланадиган идишлардан олинган намуналар бунинг аксини кўрсатди. Ҳақиқатан ёқилғи сифатсиз эди. Аниқланган маълумотларга кўра, омбор мудири олий сифатли ёқилғининг бир қисмими ўзлаштирган. Унинг ўрнини тўлдириш учун қолган олий сифатли ёқилғига дизель ёқилғисини аралаштирган. Аралашма эса, табиийки, янги олиб келинган замонавий кон транспортларини ишдан чиқарган. Шу тариқа лавҳамиз қаҳрамони нефть маҳсулотлари марказий базаси омбори мудири ва операторларининг



ёқилғини талон-торож қилганлигини исботлаб берди.

Сирожиддин Субҳонқұлов ички ишлар органларида қарийб 20 йилдан бўён фаолият олиб боради. Мана 13 йилдирки, Навоий кон-металлургия комбинатида содир этилган қатор жиноятларни фош этишга ҳисса кўшиб келмоқда. Синчков ходим ҳар бир ишни ўз вақтида кечиктирмасдан бажаришга одатланган. У соҳада бой тажриба тўплаганлиги боис бўлинмадаги бошқа терговчилар учун устоз мақомида.

– Кончилик саноати билан боғлиқ ҳуқуқбузарларларнинг барвақт олдими олиш ёки жиноятларни «иссиқ изида» фош этишда фақат ҳуқуқиий-криминалистик билимлар камлик қиласи. Тергов жараёнларида кончиликни яхши билиш ҳам зарур ҳисобланади. Жиноят ишини юритишида аввал транспорт билан боғлиқ бўладими ёки энергетика соҳасими, бирров соҳа ҳақидаги назарий маълумотларга кўз юргутираман. Бу сухбатдошимдан тушунарли, аниқ маълумотларни олишда аскатади, – дейди подполковник Сирожиддин Субҳонқұлов.

Дарҳақиқат, қаҳрамонимиз кўп йиллик хизмат таҳрибасига, кон ишлари ҳамда технологиялари ҳақида етарли билимга эгалиги сабаб корхона ишчи ва хизматчилари билан ишлаб чиқаришдаги ҳолатлар юзасидан эркин сухбат қура олади. Бу эса фаолияти давомида жуда-жуда қўл келяпти.

**Махлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.**

Суратда: подполковник Сирожиддин Субҳонқұлов (чапда) корхона ходими билан. Навоий вилояти.



Туман ИИБда

БАРЧАСИ ИНСОН МАНФААТЛАРИ УЧУН

Қорақалпоғистон Республикасининг жанубида жойлашган Элликқалъа тумани 1977 йили ташкил этилган. Туман тарихи қадим қалъалар билан боғлиқ. Маркази Бўстон шаҳри бўлиб, туманда 161 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қиласи.

Жорий йилнинг ўтган даврида туманда умумий жиноятчилик сони камайишига эришилиб, мавжуд 40 та маҳалладан 6 таси «қизил», 7 таси «сарик», 28 таси эса «яшил» тоифага киритилди.

– Жиноятларнинг аксарияти ишсиз фуқаролар томонидан содир этилмоқда, – дейди туман ИИБ бошлиғи, подполковник Қууаниш Узақбаев. – Шу боис 8140 нафар ишсиз фуқаронинг бандлиги таъминланган бўлса, 715 нафар ишсиз қайта касбга ўқитилди. Шунингдек, 13 нафарига тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиши учун 15 млн 680 минг сўм субсидия маблағи ажратилди.

Ёшлар ва хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдими олиш мақсадида улар иштирокида жойларда семинар-тренинглар, спорт мусобақалари ташкил этилди. Оғир ахволда



яшаётган ва тиббий ёрдамга муҳтож 10 нафар аёлга ёрдам кўрсатилди. Ажрим ёқасига келиб қолган 23 та оила сақлаб қолинди. Тазиик ва зўравонлика учраган 64 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери берилди, оила-турмуш доирасидаги жиноятларнинг олди олинишига эришилди.

«Ёшлар дафтари»га киритилган йигит-қизларнинг 229 нафарига зарур меҳнат қуролларини сотиб олиш, даволаниш, ҳайдовчилик гувоҳномаси учун тўлов, тураржой

хизмат қилаётган профилактика инспекторлари томонидан шу кунга қадар 17 мингдан ортиқ хонадонлар ўрганиб чиқилиб, ҳуқуқбузарлик содир этиш ёки ундан жабрланиш эҳтимоли юқори бўлган 1103 нафар шаҳс аниқланди. Тайёрланган хулосалар маҳалла фаолларига тақдим этилиб, 692 нафар шахснинг аниқланган муаммоларини ижобий ҳал этиш чоралари кўрилди, – дейди туман ИИБ ҲПБ бошлиғи, капитан Нурат Усенов.

Реал вазиятни кузатиб бориш, жиноятларни фош этиш мақсадида туман ҳудудидаги ижтимоий обьектлар, ташкилотлар, савдо ва маший хизмат кўрсатиш бинолари ва таълим муассасаларига ўрнатилган 918 та камерадан ташқари, кузатиш қамровини янада кенгайтириш мақсадида жорий йилда жойларга яна 124 та кузатув камераси ўрнатилди. Шунингдек, аҳоли гавжум ва автомобиль серқатнов бўлган 13 та жойга 49 та замонавий рақамли камера ўрнатилиб, туман ИИБ Навбатчилик қисмига интеграция қилиш ишлари олиб борилмоқда.

**Азamat ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.**
Қорақалпоғистон Республикаси.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



TIRNOQ ET ICHIGA O'SGANDA...

Tirnoqlar bilan bog'liq xastaliklardan eng ko'p tarqalgani tirnoqlarning et ichiga o'sishi (onixokriptoz) hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy oyoq kiyimlarning uchli, tor shaklda tayyorlanayotgani bu xastalikning ommalashib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Tirnoqni noto'g'ri olish va sifatsiz pedikyur ham uning et ichiga o'sishiga sabab bo'ladi.

Ayniqsa, bu xastalik tor, uchli oyoq kiyimlar kiyishdan kelib chiqadi. Shuningdek, oyoq kiyim kishining oyog'iga katta yoki kichik bo'lsa ham ushbu xastalikka sabab bo'lishi mumkin. Ko'pchilik katta oyoq kiyimning zarari yo'q deb o'ylaydi, ammo oyoqqa mos bo'lgan tuflilar ham kasallik keltirib chiqarishi mumkin.

Nasdan-nasnga o'tadigan moyillik, oyoq barmoqlari shaklining o'zgarishi (ortirilgan yoki tug'ma maymoqlik hamda yassioyoqlik), zamburug'li oyoq kasalliklari, oyoq barmoqlarining shikastlanishi, oyoq barmog'i atrofidagi turli yara-chaqalar, oyoqda qon aylanishining buzilishi kabi holatlar kasallik kelib chiqishiga zamin yaratadi.

O'sgan tirnoq terini shikastlashi natijasida yumshoq to'qimalarda yallig'lanish kuzatiladi. Keyinchalik qizarish, barmoq shishi hamda sezi larli og'riq bilan davom etadi. Shuningdek, tirnoqning har ikki tomondagi etga qarab o'sishi ham ushbu turdag'i xastaliklar sirasidandir. Eng yomoni, onixokriptozga nisbatan beparvo bo'linsa, yallig'lanish zo'rayib, tirnoq



atrofidagi terida yiring paydo bo'lishi mumkin.

Tirnoq etga qarab o'sa boshlaganida, og'riq kuchli bo'lgan payt ham ixcham pojazbalni kengrog'iga almashtirish va imkon qadar yalangoyoq yurish tavsiya etiladi. Yiring yig'ilishi va yallig'lanish avjiga chiqa boshlashidan avval mutaxassis

maslahatini olish lozim.

Teri yallig'lanib yiring hosil qilgan bo'lsa, avvalo u yaxshilab tozalanadi. Infeksiyaga qarshi turli maz va laklar tavsiya etiladi. Tirnoqning yonlari ehtiyyotkorlik bilan olinib, yiring ketgandan so'ng maxsus tamb qo'yiladi. U tirnoqning yana o'z holiga qaytishiga yordam

beradi. Har o'n besh kunda tamb almashtiriladi. Jarayon toki tirnoq to'g'ri o'sadigan bo'lguncha davom etadi.

Lazer muolajasi etga o'sgan tirnoqni davolashdagi eng samarali va kam og'riq beradigan usul. Bu usulda tirnoqning etga o'sgan qismi hamda o'sadigan qirralari lazer nuri bilan kuydiriladi. Tirnoqni olish bilan birga yallig'lanish o'chog'i ham bartaraf etiladi. Bu muolajadan so'ng tirnoqning etga qarab o'sishi muammosidan butunlay qutulish mumkin. Biroq bir qancha salbiy taraflarini ham sanab o'tish lozim: shikastlangan tirnoq atrofining kuyishi, jarohat sekin bitishi va uzoq davom etadigan tiklanish jarayoniga sabab bo'ladi.

Eng o'g'ir darajaga o'tganda jarohlik amaliyoti qo'llaniladi. Jarohlik usulida



davolash shifokor mahalliy og'riqsizlantirish usulida tirnoqning etga qarab o'sgan qismini jarrohlik yo'li bilan olib tashlaydi. Shundan so'ng teridagi shikastlanish va yumshoq to'qimalar yallig'lanishi oz bo'lsa-da, kamayadi. Bir necha oydan so'ng tirnoq yana o'z shakliga qaytadi.

Qayd etish lozim, ko'p kasalliklar insonning e'tiborsizligi tufayli kelib chiqadi. O'z vaqtida mutaxassisga murojaat qilmaslik esa, ularning zo'rayib ketishiga sabab bo'ladi. Shu bois doimo salomatligimiz haqida qayg'urishimiz hamda jismonyi holatimizdagi o'zgarishlariga bee'tibor bo'imasligimiz kerak.

Aleksandr LYAN,
IV Markaziy poliklinikasi
shifokor-jarrohi.

Хлорофитум комнатный

Это растение прекрасно очищает воздух. Немаловажным преимуществом является то, что



хлорофитум комнатный может поглощать не только обычные загрязнители, но и некоторые токсичные вещества. Среднее по размерам растение легко очистит до 3 кв. м площади.

Хамедорея изящная

Хамедорея также способна очищать воздух. Она поглощает ядовитые вещества (бензол, выхлопные газы и пр.), поэтому ее лучше



ЛЕКАРИ В ГОРШОЧКАХ

Комнатные растения способны не только украсить помещение, но и привнести в дом атмосферу уюта и тепла. Многие из них обладают полезными свойствами, о которых некоторые из нас даже не догадываются.

всего ставить в домах, которые расположены возле дорог. Такая небольшая пальма хорошо будет смотреться не только на окне, но и в любой части комнаты.

Фикус

Фикус увлажняет воздух, насыщает его кислородом, устраняет токсины, задерживает пыль.



Люди, у которых в комнате есть такое растение, реже болеют простудными и вирусными заболеваниями.

Сансевиерия домашняя

Растение насытит воздух кислородом и нейтрализует вредные

испарения от синтетических материалов. Оно способно повышать иммунитет, поэтому рекомендуется ее иметь тем, кто часто страдает от простудных заболеваний. Помимо всего растение активно поглощает углекислый газ, формальдегид. По последним данным научных исследований именно это растение рекомендуется выращивать в жилых домах с пластиковыми окнами.

Пеларгония – герань комнатная

Она помогает при бессоннице и нервных расстройствах. Ее аро-




мат успокаивает. Если в комнате будет стоять такое растение, оно избавит вас от усталости, поднимет настроение. Гераниол, содержащийся в листьях, способен оказывать антибактериальное воздействие.

Из корней и листьев герани готовят настои и отвары, которые можно использовать в качестве кровоостанавливающего, антисептического, вяжущего, обезболивающего, противовоспалительного средства.

Алоэ

Это растение можно использовать для лечения воспалительных процессов, кожных заболеваний, в косметических целях, при простуде, язвах, заболеваниях верхних дыхательных путей, для повышения иммунитета и т. д.



Существует множество рецептов с использованием данного растения.



Статья 79.

Государство обеспечивает защиту личных, политических, экономических, социальных, культурных, экологических прав молодежи, поощряет ее активное участие в жизни общества и государства.

Государство создает условия для интеллектуального, творческого, физического и нравственного формирования и развития молодежи, реализации ее прав на образование, охрану здоровья, жилье, трудоустройство, занятость и отдых.

Границы мастерства

«РАБОТАЕМ СЛАЖЕННО»

За плечами старшего инспектора группы боевой и служебной подготовки бригады ППС ГУВД города Ташкента подполковника Игоря Кима более двух десятилетий службы в ОВД.

В органы правопорядка он пришел в 2000 году после окончания Ташкентского автомобильно-дорожного института. Профессиональную деятельность начал командиром группы 1-го отряда 4-го батальона бригады ППС ГУВД столицы. Затем целеустремленный сотрудник был назначен помощником начальника штаба – начальником дежурной части батальона. С 2018 года по 2021 год служил в должности заместителя командира батальона по обеспечению безопасности при проведении общественно-политических, культурно-массовых мероприятий.

Подполковник И. Ким с благодарностью отзываются о своем настав-



нике – подполковнике Рамазане Мусаеве, который щедро делился опытом, давал дальние советы в любых сложных ситуациях.

Основная задача подразделения, в котором сегодня служит герой очерка – повышение профессионального мастерства сотрудников. Для личного состава бригады в плановом порядке организуются занятия системы боевой, физической, служебной подготовки, практические стрельбы.

– Работаем слаженно, плечом к плечу, – отмечает подполковник И. Ким. – Мои сослуживцы – инспектор группы майор Тохир Бай-

кобилов, инспектор отдела кадров УООП лейтенант Рустам Алляров – надежные сотрудники, на которых всегда можно положиться.

Иgorь Михайлович пользуется большим уважением в коллективе. Коллеги отзываются о нем как о профессионале, наставнике молодежи.

Подполковник И. Ким считает, что в жизни нужно обгонять не других, а самого себя – постоянно самосовершенствовать и познавать новое.

**Мардона БАХТИЯРОВА.
Фото Абу КЕНЖАЕВА.**



В центре внимания – подросток!

СИТУАЦИИ БЫВАЮТ РАЗНЫЕ

14-летний Баходир, житель махалли Кора-багиш, забрался в дом к соседям и украл ювелирное украшение.

– Подросток попался, когда попытался продать украденное за бесценок, – говорит старший инспектор группы по вопросам несовершеннолетних отделения профилактики правонарушений Мархаматского РОВД подполковник Гулноза Ашуррова. – Баходир взят на учет. Удалось поставить парнишку на путь исправления. Летом он работает, моет машины на станции автосервиса.

У нас на профилактическом учете состоят 69 подростков. С ними ведется индивидуальная работа. Не остаются в стороне и родители, упустившие момент в воспитании детей.

Подполковник Г. Ашуррова рассказала о работе с трудными подростками, поведала о мнимых «уличных» ценностях, привлекающих ребят ершистого возраста.



– Так, значение слова «лидер» они часто воспринимают искаженно. Думают: «Я модно одеваюсь – я крутой», «У меня дорогой телефон – я еще круче».

За счет мнимого авторитета зачастую подросток пытается самоутвердиться, – отмечает наша собеседница. – Чтобы увести несовершеннолетнего от плохого

поведения, приводим истории разных детей – естественно, без фамилий. Описываем ситуацию, подростки «примеряют» ее на себя, начинаем обсуждать, как поступили бы они, выводим на верное решение.

В гипертрофированной строгости детей держать нельзя, но и вседозволенность – неправильный метод. У меня есть пример. Ребенок рос в состоятельной семье. Хочешь iPhone? Пожалуйста. Хочешь на Чарвак отдохнуть? Куплю путевку. Мальчишке давали все, что он попросит, при этом не формировали чувство ответственности, самодисциплину. В итоге он стал употреблять наркотики...

Инспекторы-психологи не могут исправить всех детей. Кому-то удается помочь, а кому-то не очень. Но мы прилагаем максимум усилий к тому, чтобы подопечные осознали разницу между хорошим и плохим, думали о последствиях своих действий.

**Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.
Андижанская область.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz




www.instagram.com/postda_uz

Шутка недели



«Никогда не думал, что буду с ностальгией вспоминать сотрудника ДПС, ловившего меня раньше за превышение скорости в месте, где нынче стою в пробке...»

Сканворд



ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ

(с 28 августа по 3 сентября)



Овен. Предстоит приятные хлопоты, связанные с приобретением недвижимости. Проявите ответственность. Работа потребует самоотдачи – чем существеннее вы вкладываетесь, тем больше получаете взамен. Вероятны новости, которые круто изменяют жизнь. Выходные проведите в кругу семьи.



Телец. Любые ограничения будете воспринимать достаточно резко. Лучше воздержаться от грандиозных планов, посвятить время спокойным повседневным делам и обязанностям. Вас ожидает долгожданная финансовая стабильность. Обратите внимание на здоровье.



Близнецы. Велика вероятность оказаться втянутым в авантюрные проекты. Будьте внимательны ко всему, что вам предлагают. Помните, бесплатный сыр может быть только в мышеловке. В работе проявляйте неординарность, при этом перепроверяйте поступающую информацию.



Рак. Вас ожидают финансовые поступления, спокойный и размеренный ритм жизни. Близкие готовят для вас приятный сюрприз. Досуг разбавьте творчеством, спортом, прогулками. Выходные проведите на природе в окружении семьи.



Лев. Обстановка вокруг накаляется, поэтому старайтесь не добавлять страстей в текущие события. Посвятите неделю исключительно повседневным рутинным делам. Новые проекты и начинания лучше перенести на более благоприятный период.



Дева. Неделю постарайтесь спланировать максимально разнообразно. Больше двигайтесь, участайте в обсуждениях, где будет возможность озвучить свои идеи. Несмотря на рабочую активность, останется достаточно времени и сил на домашние дела и семью.



Весы. Не лучшее время, чтобы прислушиваться к советам окружающих. Стоит поверить в себя, свои силы. Это позволит активно и успешно воплотить давно вынашиваемый замысел. Небольшие покупки будут благотворно влиять на настроение и поднимут жизненный тонус.



Скорпион. Не все ваши идеи найдут должную поддержку, в очередной раз придется доказывать свою состоятельность и профессионализм. Но не робейте раньше времени, если вы твердо уверены в успехе своего дела, идите до конца. Выходные лучше провести в уединении на природе.



Стрелец. Неделя будет достаточно продуктивной в отношении карьеры и дополнительного дохода. Будьте готовы к тому, что работа займет практически все свободное время. Полученное в итоге вознаграждение позволит восполнить силы в интересных поездках.



Козерог. Рекомендуется сохранять выдержанку и терпение абсолютно во всех ситуациях. Не ждите, что накопившиеся проблемы кто-то будет решать за вас, самостоятельно принимайтесь за работу. Инициированные вами проекты будут успешно реализованы.



Водолей. Настройтесь на то, что участвовать в семейных делах возможности не представится. Все свободное время будет поглощать работа. В столь активный период продумайте различные варианты отдыха. Рекомендуется серьезно задуматься о собственном бизнесе, для его старта сейчас подходит время.



Рыбы. Будет интересно все, что связано с саморазвитием. Страйтесь больше времени уделять общению с интересными людьми, посещению различных мероприятий. В начале недели ожидается приятное знакомство, способное изменить вашу личную жизнь.



Aql gimnastikasi

KUBOK NAMANGANLIKLARDA

Osoyishtaligimiz posbonlari o'rtasida shaxmat bo'yicha o'tkazilayotgan «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasining final bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda o'zining o'yin uslubi, shijoati va qobiliyati bilan barchani dog'da qoldirgan Namangan viloyati IIB jamoasi shaxmatchilarini musobaqa g'olibiga aylandi. Finalda raqibidan biroz ortda qolgan IIU Markaziy apparati jamoasi vakillari ikkinchi o'rinni qo'liga kiritgan bo'lsa, xorazmlik sportchilar esa uchinchi o'ringa loyiq topildi.



– Ushbu musobaqani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham xodimlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish hamda sog'lom va ma'nан yetuk insonlarni tarbiyalashdan iboratdir, – deydi musobaqa tashkilotchilaridan biri podpolkovnik Rinat Rajabov. – Shu boisdan ham bu kabi tadbirlarni doimiy tarzda o'tkazib turishni qat'iy maqsad qildik.

Shuningdek, yakkalik bahslarida ham o'zining mahoratini namoyish etgan Qorovul qo'shnlari qo'mondonligi harbiy xizmatchisi, III darajali serjant Sherbek Xurramov tengsiz deb topilib, shohsupaning yuqori pog'onasidan joy oldi. Xorazm viloyati IIB xodimi, kichik serjant Mansurbek Rahimov 2-o'rinni egallagan bo'lsa, Toshkent viloyati IIB osoyishtalik posboni kapitan Hasan Iskandarov 3-pog'ona bilan kifoyalandi. G'oliblarning barchasiga turli darajadagi diplom, medal va qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

O'z muxbirimiz.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGIBosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVABosh muharrir o'rnbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVAMas'ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROVNavbatchilar –
Foziljon MAMASHARIPOV
Radik TUMPAROVSahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEVFotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uzE-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodи 00014.
O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.
Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'il-yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahfalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxtatga
olingan.

Buyurtma №V-5572.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50362 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

